

Hikmat - Ko'ngil Chirog'i

Malum ermasmu magar ibrat senga,

So'z ochar so'zni degan hikmat senga? Jaloliddin Rumi

Insonni sev! Uni ezozla! Bu yangilik emas b"b" juda qadimiy gap. Sevgi va ezozga loyiq bo'lolmasa-chi? Noloyiqni sevmog, birinchidan, fahm-farosat pastligini ko'rsatadi; ikkinchidan, muhabbatni tahqirlaydi; uchinchidan, insoniylik sharafiga ziyon yetkazguvchi bir ishdir. Chunki hamma kishi ham mehr-muhabbatga munosib bo'lolmaydi.

Odamni bilish, odam tanishda hikmat ko'p. Mana shunda adashildimi - bo'ldi: to'g'rilik, insof, muruvvat, vijdon, mardlik - hamma-hammasida chalg'ib ketiladi. Dononi - nodondan, oqilni - johildan, mardni b"b" nomard va g'irromdan ajratolmagan, rostlik va halollik qadrini yerga qorishtirib, o'g'rilik, muttahamlik va korchalonlikka keng yo'l ochgan jamiyatning boshi esa musibatdan chiqmaydi, xususan, axloqiy, ruhiy ofatlar uni ichdan kemirib, yemirib yuboradi. Bunday vaziyatda so'z ham, fikr ham tasir kuchini yo'qotadi. Va o'zi ishonmaydigan narsaga o'zgalarni ishontirishda bel bog'lagan, gapi boshqa, hol va amali mutlaqo boshqa vaysaqi, safsatabozlarning bozori qiziydi. Ammo ulardan hech qaysisi millat, yurt taqdiriga tegishli biror bir masuliyatni zimmasiga olmaydi.

Odamning taqdiri va istiqboli jamiyatda hal bo'lganidek, jamiyatning ijtimoiy, axloqiy, fikriy sog'lomligi ham odamning butunligi, komilligiga daxldor. Komil inson haqida ko'p gapiramiz, o'zimizcha kuyinamiz. Bu yaxshi, albatta. Lekin quruq gap bilan, yolg'iz kuyinish yoki istak bilan insonni o'zgartirib, komillashtirib bo'lmasligini chuqur o'ylab ko'rmaymiz. Bizningcha, bu jabhada komil inson masalasini har jihatdan chuqur o'rgangan tasavvuf allomalarining mulohaza, mushohada va xulosalariga ko'proq tayanish joiz. "Komil inson" asarining muallifi, buyuk vatandoshimiz Azizuddin Nasafiy yozadi: "Shuni yaxshi bilgilki, odamlarning ko'pchiligida insonlik qiyofasi bo'lgani bilan odamiylik manosi yo'qdir. Bunday kimsalar esa aslida eshak, ho'kiz, qurt-qumursqa, qoplon, ilon va chayonlardir. Nega, nima uchun bunday deya sira ajablanmaslik lozim. Chunki

har bir kent va shaharda ham manan, ham jisman insonlik sharafiga sohib bir hovuch kishi bordir, xolos..."

Shu o'rinda bir narsani takidlab o'tsak. Insonning axloqiy poklanishi, tafakkur balog'ati, bir so'z bilan aytganda, komilligi borasida qadimda ilgari surilgan va asrlar mobaynida o'zlashtirilib, amal etilib kelingan BOYA va tushunchalardan yiroqlashish, uzilish holati u yoxud bu tarzda butun bashariyat turmushida ko'zga tashlanib turibdi. Buning bosh sababi Nasafiy bobomiz ko'rsatgan nuqson - odamiylik manosidan mahrumiyatning keng quloq yozishi erur. Darhaqiqat, o'z ilohiy mohiyatini tushunish va mushohada qilishda insoniyat oldinga emas, ortga odimlagani inkor aylash mushkul bir haqiqat. Moddiy va texnikaviy taraqqiyot bashar nafsida yangi-yangi "o'zan"lar ochdi...

"Aniqki, biz jin va insondan ko'plarini jahannam uchun yaratdik. Ularning dillari boru anglay olmaydilar, ko'zlari boru ko'ra bilmaydilar" (Arof: 179) Dunyoni botindan bilish layoqatiga sohib odam Quroni karimdagi bu kalimalarga zarra qadar ishtiboh qilolmaydi. Shaytoniylik, hayvonlashuv, yirtqichlik shu qadar avj olib ketdi. Ayniqsa, G'arb dunyosidagi manaviy xastaliklar, xulqiy buhronlarni aytib ado qilish qiyin. Eng katta fojia esa botin va zohir orasidagi ziddiyat, hol va amalning keskin farqlanishidir. Pul, mol-mulk, mansab, martabaning kuch-quvvatiga ishonch, barcha ishonchning, jumladan, diniy hissiyotlarning ham tamali bo'layotir. Hozir biror bir din va ilohiy maslak topilmaydiki, "butparastlik" unga suqilib kirmagan bo'lsin. Malumki, odamlar manan va ruhan mavjud borliq, yani zohiriy dunyodan yuksakkka ko'tarila olmaganliklari tufayli oltin, kumush, yoqut, dur kabi jismlardan go'zal shaklda haykallar yaratib ularga topinganlar. Iloh deb shularga sajda etganlar. Va Olloh sifatlarini mana shu narsalarga nisbat berishgan. His qorong'uligi, ko'ngil ko'rliigi bunday bandalarni ilohiy nurdan butunlay yiroqlashtirib tashlagan. Shunday kimsalar yo'qmi butun? Jahonning hamma joyida ularga duch kelish mumkin. Ular xohlasa dindor, taqvodor, istasa, kambag'alparvar va fidokor siymosida ko'rinadi. Biroq Ollohga emas, siyratidagi but-nafsga taslimdirlarki, qorin uchun ular dasturxonga tazim etishdan, manfaat va mavqe ilinjida amaldorga bel bukib tilyog'malik qilishdan, boylik deb shaytonga siginishdan aslo tortinmaydilar. Imom G'azzoliyning mana bu so'zlariga etibor bering: "... Bir jamoat bordurki... o'zlarining bir rab ekanliklariga inonurlar. Masalan, go'zal bir inson, bir daraxt, ko'rkam bir ot yoki boshqa bir qimmatbaho narsani ko'rishlari zamon darhol unga sajda qilurlar va "U rabbimizdir", derlar..."

Xoh ishonang, xoh ishonmang, ana shu qavimga mansub zotlar hozir ko'paygan. Faqat ular otgamas, narxi baland xorijiy mashinasiga, daraxtgamas, hashamatli imoratlariga, jonining "jonona" siga do'ngan allaqanday jihozlariga sig'inishadi. Eng qizig'i, bular ham "suniy go'zallikka emas, balki tabiiy go'zallikka" sajda etib, qalblari "go'zallik nuri ila pardalanib" buzilganini tasavvur ham etolmaydilar.

Umuman, Haq va haqiqatdan olis, na olam, na odam hikmatini idrok qilib bilmaydigan bandaning g'ayrati ham, tashabbusi va himmati ham xosiyatsiz. "Taom bilan to'lgan medada hikmat bo'lmas", deydi Zununi Misriy. Bu - nafs, hirs, tama bandalari hikmatdan benasibdurlar degani bo'ladi. Chunki, hikmat pokiza ko'ngil va tazkiya topgan ruhlariga Olloh tomonidan tuhfa yuboriladigan ilohiy so'z hamda manolardir. Hikmat ahli xos kishilar, yani chin faqir, orif, diydortalab oshiq va abdollar bo'lgan. Ularning ilmi - laduniy ilm, vujudlari esa marifat suvi bilan yuvilgan. Hikmat egalarining dunyoni anglashlarida tafakkur va sukut alohida o'rin tutganligi uchun tabiatlarida shoshqinlik, yakravlik, kibr singari nuqsonlardan tozalangan. Rumiya ko'ra "Hikmatlar - Alloh lashkaridur, ular Haq, haqiqat bayrog'ini ko'tarib, ko'ngullarni zabt qilur". Bu etirof Mavlono hikmatlariga ham to'la tegishli.

Abdurahmon Jomiy hazratlari:

G'arqi daryoiy tafakkur shudayem,

Tahnishin chun sadafu dur shudayem, -

deydilar. Chunonchi: biz tafakkur daryosining qariga sho'ng'idik. Shu uchun sadaf va durga o'xshab joyimiz pastda - eng chuqurlikdadir. Aqli va dili hikmatga to'lgan zotlarning, xususan irfon narhidan qonib-qonib suv ichgan haqiqatparastlarning sifat va fazilatlarini xuddi shundaydir.

Abu Hasan Bushanchi "Bugun tasavvuf, haqiqatidan mahrum bir ismdir. Bundan oldin esa ismsiz bir haqiqat edi", deydi. Yani: tasavvuf atamasi sahoba va salaf zamonida mavjud emasdi. Biroq ularning har birida buning manosi mavjud edi. Endi esa tasavvufning nomi bor, ammo haqiqat va hikmati yo'qdir. Ushbu fikrni hozirgi kunlarga ham tadbiq qilsa bo'ladi. Chunki tasavvuf mavzuida aytilayotgan va yozilayotgan mulohazalarning ko'pi uning haqiqati, sirli hikmatidan ko'ra tashqi yoki allaqachon eskirib ulgurgan jihatlariga tegishlidir. Tasavvufning hayotiy ruhi, bebaho duri gavhari, sir-asror xazinasi va go'zallik shukuhini qayerdan

izlash haqida so'ralsa, hech ikkilanmasdan, adabiyot va san'atni tilga olish lozim. Tasavvuf targ'ibu tashviqiga safarbar adabiyot ham juda ahamiyatli va ibratli. Lekin tasavvuf olami va haqiqatlari badiiy talqin qilingan Ishq, Ruh, Ko'ngul, Irfon va Zavq adabiyoti yanada go'zal, yanada tasirli. Bu adabiyotda nainki so'z va mano, ohang, rang, tasvir ham o'zgacha, yani ruh va ko'ngulni yolqinlantiruvchidir. Mavlono Jaloliddin Rumi asarlari shu uchun dunyo ahlining yuragini zabt aylab, o'ziga asir etgan. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol keyingi yillarda tarjimon sifatida bir qator xayrli va zo'r ishlarni amalga oshirdi. O'zbek o'quvchilari uning tarjimasida sharq irfoniy adabiyotining shoh asarlari - Fariduddin Attorning "Mantiqu-tayr", Jaloliddin Rumiyaning olti jildlik "Masnaviyi manaviy"ini o'qish imkoniga ega bo'lishdi. "Masnaviy"ning har bir kitobi bor-yo'g'i ming nusxada chiqqani inobatga olinsa, uni o'qiganlar soni orzu darajasida emasligi o'z-o'zidan anglashiladi. Holbuki, "Masnaviy" bugun dunyo jamoasini qiziqtirib, bashariyatning najot, umid kitobidan biri bo'lib turibdi. Malumotlarga ko'ra so'nggi vaqtlarda Amerika Qo'shma Shtatlarida tez-tez nashr etilib, eng ko'p xarid qilinayotgan kitob "Masnaviy" ekan. Uni o'qish, o'rganishga ehtiyojmandlik bizda ham hech bir eldan oz yoki past emas. Shuni nazarda tutib Mavlono hikmatlaridan kichik bir guldasta tuzdik. Bu hikmatlar tuyg'u va tushunchada tozalik, imon va etiqodda halovat demak. Mavlono'ning so'z va fikrlaridagi hikmat b<sup>o</sup>l insoniylik qadri va sharaflari hayvoniy, shaytoniy hirsu ofatlardan ajratish demak. Sharq donishmandlaridan biri kambag'al va qashshoqlarni boylikdan nafratlanish, molu dunyoni qoralashga o'rgatmanglar, odam oldin badavlat bo'lib, ana undan so'ng boylikni nazarga ilmaydigan saviyaga yuksalmogi lozim, degan ekan. Bu - to'g'ri gap. Xalqimiz bejiz "Ko'rmaganni - ko'rgani qursin", demagan. Ochdan, qashshoqdan chiqqan nazari past kimsa dunyo boyligini yig'sa ham baribir to'ymaydi, "mol yig'ishtirur lain"ligicha qolaveradi. Va bunaqa gushnalarning millatga, yurtga, ilm-fan yoki adabiyot va san'atga hech foydasi tegmaydi. Ollohga shukrki, elimiz orasida adabiyotni sevadigan, ilm-fan, marifat qadr-qimmatini har qanday moddiy boylikdan baland ko'radigan sarmoyadorlar bazan uchraydi. Siyrak bo'lsa-da, bor ular. Mazkur kitob shunday insonlardan birining tashabbusi va himmati bilan chop etildi. Bundan ko'pchilik minnatdor, Mavlono'ning ruhlari shod bo'lur, degan umiddamiz. Axir marifat hamisha madadga muhtojligini Rumi hazratlari ham inkor qilmaganlar. Haq mayining ayricha toti bor. Mavlono demishlarki:

Haq mayidin kimsa bir kultum ichar,  
Bir emas, ul ikki olamdin kechar.  
Ul musaffo may sururi o'zgacha,  
Mastligi etgay davom mahshargacha.

O'ylaymizki, ushbu hikmatlarni o'qigan har bir kitobxon Haq mayidan qultumlab, qon va jonida o'zgacha surur uyg'onishini his etarkan, bunga o'zi ishonch hosil qiladi.

Ibrohim Haqqul (filologiya fanlari doktori)  
Bismillohir Rahmonir Rahiym

Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,  
Ayriliqlardin shikoyat aylagay.  
Men qamish erdim, kesib keltirdilar,  
Nola cheksam, el hama oh urdilar.  
Siyna istarmen to'lo dardu firoq,  
Toki so'ylay sharhi dardu ishtiyoq.  
Kim yiroq tushsa, yo'qotsa aslini,  
Boz izlar ro'zgori vaslini.  
Davralar ko'rdim necha nolon bo'lib,  
Davradoshim g'amingu shodon bo'lib.  
Har kishikim bo'ldi bir dam yor menga,  
Bilmadi yordir nechuk asror menga.  
Sirrim ermas nola-ohimdin yiroq,  
Garchi nur ko'zu qarog'imdin yiroq.  
Tanga jonu jonga tan mastur emas,  
Jonni ko'rmak kimsaga dastur emas.  
O't erur nayning navosi, yel emas,  
Kimda o't yo'qdir, yo'qolsin, el emas.  
Nayni yondirgan o'shal ishq otashi,  
Mayni yondirgan o'shal ishq otashi.  
Yordin ayrilganga nay yordir, ne bok,  
Pardasi pardamni etmish chok-chok.  
Nay kabi bir zahru taryoq qayda bor?  
Nay kabi damsozu mushtoq qayda bor?  
Qonli yo'llardin hikoyat aylagay,  
Ne emish savdoyi Majnun, so'ylagay.  
Bo'yla hushdir, mahrami behush, bas,  
Mushtari unga quloqdin boshqamas.  
Kunlarim tun qariga jo bo'ldilar.  
O'rtanishlar menga hamroh bo'ldilar.  
Ishq ila kimning yaqosi chok erur,  
Hirsdin ozodu aybdin pok erur.  
Ey omon bo'l ishq - ajib savdoyimiz,

Ey hakimi hoziqu donoyimiz.  
Lablariga yesam ul damsozni,  
Nay kabi men sochgay erdim rozni...  
Kimki bo'lsa hamzabonidin judo,  
Bezabondir garchi unda yuz navo.  
Chunki, gul kesa guliston qolmagay,  
So'ngra bulbul birla doston qolmagay...  
Rabbanodin barcha istarmiz adab,  
Beadab ko'rmas jahonda lutfi Rab.  
Yo'q, faqat etmas o'ziga ul yomon,  
Beadab urgay jahonga o't hamon.  
Nurga to'lmishdir adab birlan falak,  
Ham adabdin masumu pokdir malak.  
Kun tutilsa ko'kda, gustohlik sabab,  
Ko'kdin haydaldi Azozil, beadab...

\* \* \*

Xastaga mehru muruvvat ko'rsatib,  
Har ne lozim, ko'rdi, tekshirdi tabib.  
Boisi safro emasdi ul butun,  
Bilsa bo'lgay, ne o'tindin ne tutun...  
Zoridin bildi, nechuk zor erdi dil,  
Tan salomat, lek giriftor erdi dil.  
Keldi oshiqlik ko'ngilning zoridek,  
Yo'q bemorlik ko'ngil bemoridek.  
Dardi oshiq o'zgadir olam aro,  
Ishq - usturlobi asrori Xudo.  
Aql ishq sharhida ojiz ne tariyq,  
Ishq ne, oshiq nedir, anglatdi ishq...

\* \* \*

Gar tikan botsa oyoqqa, begumon  
Tizzaga olgung oyoqni shul zamon.  
Igna birla chiqmasa ul bir yo'la,  
Lab bosib, olmoq bo'lursan tish ila.  
Bas, tikan botsa oyoqqa, bul azob,  
Dilga sanchilsa, ne bo'lg'ay, ber javob?

\* \* \*

Mustafo dediki, kim sir tutgusi,  
Sir nihon aylab, murodga yetgusi.  
Donalar chun yerga pinhon bo'ldilar,  
Barq urib so'ng sabza, rayhon bo'ldilar.  
Simu zar gar bo'lmasa ko'zdin nihon,  
Bo'lmas erdi simu zar berguvchi kon...

\* \* \*

Chashmaning boshi kesilsa, xullasi,  
Boisi - mavji, ziloli jilvasi.  
O'z pati tovusga dushmandir, qarang,  
Chunki ul patning jilosi turfarang.  
Bul jahon - tog', felu atvoring - nido,  
Ul nidoni senga qaytargay sado...

\* \* \*

Ul qizil guldirdi ochilgan, xun dema,  
Ul aqlidin mast erur, majnun dema.  
Kimki to'ksa bir musulmon qonini,  
Kofir o'lgum, tilga olsam nomini.  
Larza solgay Arshga ham madhi shaqiy ,  
Badgumon bo'lgay bu so'zdin muttaqiy .  
Shoh bo'lsa, yurtga ogoh bo'lsin ul,  
Xos bo'lsin, xosi Olloh bo'lsin ul...

\* \* \*

Sen azizlarni o'zingdek bilmagil,  
Garchi o'xshashdir yozuvda "sher"u "shir".  
Jumla olam shul sabab gumroh erur,  
Kam kishi Haq ahlidin ogoh erur.  
Bazilar o'zni nabiy deydi, xolos,  
Avliyoni o'ziga aylar qiyos.  
Der: ular ersa bashar, biz ham bashar,  
Biz-da non yermiz, ular-da non oshar.  
Vah, ular ko'rmas va bilmas hech qachon  
O'rtada bordir tavofut onchunon.  
Arilar ham turfadirkim, har mahal  
Bittasi zahru biri yiqqay asal.  
Ikki ohu bir giyoh yer, sarhisob:  
Bittasidin go'ng, biridin mushki nob.  
Ul qamishlar bir ariqdin suv ichar,  
Bittasi bo'm-bo'sh, birida qand, shakar.  
Boqki, o'xshash jonu jonzot qanchalar,  
O'rtada farqu tafovut munchalar.  
Ul yesa, undan palid bo'lgay judo,  
Bul yesa, kelgay nuqul nuri Xudo.  
Ul yesa, kelgay faqat buxlu hasad,  
Bul yesa, bo'lgay faqat ishqi Ahad...  
Harf - idish, mano - idishda suv hamon,  
Bahri mano ham kitob ichra nihon.  
Bahri talx, bahri shirin ham mavjlanur,  
Lek qo'shilmas, bir-biridin ajralur...

\* \* \*

Sen razm sol, ikki yuzni et qiyos,  
Balki bo'lgaysen bu ishdin ro'shinos.  
Jumla iblislarda odamyuzli, bas,  
Har kishiga qo'l berish ham yaxshimas.  
Kahru shahvat kimsani aylar g'ilay,  
Ko'p yomon yo'llarga ruhni boshlagay.  
Bas, g'araz kelsa, hunar kiygay niqob,  
Parda tushgay ko'zga ko'ngildin shu tob...

\* \* \*

Gar hasad ko'nglingga solsa bir g'uluv,  
Lanati Iblisning etgan kori bu.  
Ul hasad aylab, mudom jang aylagay,  
Odamiyning holini tang aylagay.  
Ehtiyot bo'l, yo'lda ul tosh bo'lmasin,  
Shum hasad yo'lingda yo'ldosh bo'lmasin.  
Gar jasad ermish hasad uyi, va lek,  
Ul jasadni pok etur Ollohi nek.  
Behasadga aylasang makru hasad,  
Ko'p qaroliklar chekar ko'nglingga sad.  
Mardi Haq bo'l, bo'l hasaddin beg'ubor,  
Bizga o'xshab sen uni tuproqqa qor...

\* \* \*

Gar kumushning rangi oqdir, lek shu dam  
Qo'lga olsang, qo'l qoraygay, joma ham.  
O't degan cho'g'din qizil yuzdir magar,  
Sen qaro qilmishlariga sol nazar.  
Garchi chaqmoq nurga monandir, hamon  
Chaqnasa, ko'zni qamashtirgay yomon...

\* \* \*

Gar anor istar esang, xandonni ol,

Xandasi har donasidin bir misol.  
Nori xandon bog'ni ham xandon qilur,  
Suhbati mardon seni mardon qilur.  
Garchi toshdiren, va gar marmar o'zing,  
Tutsa ko'ngil sohibi, gavhar o'zing.  
Mehri poklarni aziz tut erta-kech,  
Mehri yo'qlarga ko'ngilni berma hech.  
Sen g'azoyi dilni hamdildin so'ra,  
Baxtu iqbolingni muqbildin so'ra.

\* \* \*

Haq o'zi jonlarga deb nur yog'durur,  
Baxtiyorlar unga doman to'ldirur.  
Kimki uzmas ersa Ollohdin nazar,  
Unga bo'lgay nuri Ollohdin asar.

\* \* \*

Tangri bizni yorlaqab, yorlik qilur,  
Ko'nglimizni o'ziga zorlik qilur.  
Ul go'zal ko'zlarki, giryondir anga,  
Ul humoyun dilki, biryondir anga.  
Har yig'ining oxiri bir xandadir,  
Oxirat mardi muborak bandadir.  
Yig'laganlarni aya, nam istasang,  
Notavonlarni aya, rahm istasang...

\* \* \*

Bo'yladir ushbu jahonda qiylu qol,  
Och ko'zingni, boq jahonga, ibrat ol.  
Sen o'zingdan-ku qocholmassen, aniq,  
Bas, netib Haqdin qocharsen, ey rafiqliq?  
Bedavolar mulki dunyo izlagay,  
Baxtiyorlar mulki uqbo izlagay...

\* \* \*

Dedi: sir aytilsa, sirdan bormu sud,  
Juft toq bo'lgay gahi, gah toq juft.  
Urmagil dam, tiyra tortgay oyina,  
So'ngra aksingni qoraytgay oyina.  
Uchta so'zga kam qimirlat sen labing,  
Aqchangu yurmoq yo'ling ham mazhabing.  
Shu uchovga ko'p emish dushman, aduv,  
Bilsa, bas, tushgay sening qasdingga u...

\* \* \*

Sen imonni toza tutgil ham omon,  
Bo'l amin kibru havodin har zamon.  
Ul havo ziddir imoni tozaga,  
Ul havo qulfdir o'shal darvozaga.  
Sharh etarsen ul aziz Quronni, bas,  
Sen o'zingni sharh qil, Quronnimas.  
Uncha sharh etding dumog'dorlik bilan,  
Pastu qiyshiq bo'ldi manoyi baland...

\* \* \*

Xushdurur payg'omi Haq - Parvardigor,  
To abad payg'omi Haqdir poydor.  
O'zgarur shohlarda hukmu saltanat,  
Avliyolar hukmi qolgay to abad.  
Shohlardin qolmagay dahr ichra nom,  
Nomi Ahmad to abad oliymaqom.  
Anbiyolar ismi butkul undadur,

Kelsa yuz, fahm etki no'qson shundadur...

\* \* \*

Rang ko'rish zohirda nursiz ko'p qiyin,  
Ichdagi rangi xayol ham inchunin.  
Dahr aro nur - aksi oftobi saxo,  
Dildagi nur - aksi anvori Xudo.  
Dilda bo'lsa, ko'zga kelgay hosili,  
Ko'z nuri ko'ngil nurining mahsuli...

\* \* \*

Eyki, yuksalding alamni, ohni,  
Bilki, qazgaysen o'zingga chohni.  
Bir zaif yerda chekar bo'lsa fig'on,  
Tikka qo'zg'olgay sipohi osmon...

\* \* \*

Nafs do'zaxdir va do'zax - ajdaho,  
Bahru daryoying anga bo'lmas vaqo.  
Yeti daryoni simirsa, ichsa ham,  
Chanqovi qonmas, degaykim, menga kam.  
Nafsi dev olamni ham yamlab yutar,  
Naralar tortib, yana olam kutar.  
Lomakondin Haq qadam bosgan zamon  
Qolmagay andin biror nomu nishon.  
Sher agar saflarni yormishdir, netar,  
Sher ulkim, nafsini mag'lub etar...

\* \* \*

Kim havasdin pok tutsa jonini,  
Hazrati Haqning ko'rar ayvonini.  
Chun Muhammad ul g'ubordin pok edi,  
Qayga borsa, unda vajhulloh edi.  
Bag'ri keng bo'lsa kishi ham ko'ngli sof,  
Har shahardin unga boqqay oftob.  
Haq bu olam ichra ko'rsatgay jamol,  
Porlagan yulduzlar ichra oy misol...

\* \* \*

Chun odam ko'zu quloqsiz erdi, bo'sh,  
Haq fusun etgach, odamga tushdi jo'sh.  
Haq fusun etgach, odamlar zud-zud  
Keldilar bor bo'lgali so'yi vujud.  
Gulga afsun aytdi, xandon ayladi,  
Toshga aytdi, lali tobon ayladi.  
Tanga so'z aytgan edi, jon bo'ldi ul,  
So'yladi xurshidga, raxshon bo'ldi ul.  
Boz qulog'iga etarkan nuqta fosh,  
Yuziga yuz parda tortdi ul quyosh.  
To bulutga so'yladi bir-ikki bor,  
Ko'zidin yoshlar oqizdi shashqator.  
Yer qulog'iga necha so'z aytdikim,  
Yer chuqur o'ylarga toldi, qoldi jim...

\* \* \*

Til temirga, toshga ham o'xshash erur,  
Tildan uchgan so'z gahi otash erur.  
Urma sen toshni temirga bemahal,  
Goh maqol aytib, gohi so'ylab matal.  
Ulki zolim qavmlar, ko'z yumdilar,  
So'z ila olamni ham yondirdilar.  
Bir suxan olamni vayron aylagay,

Tulkini o'rmonda sulton aylagay...  
Qatrayi ilmingki, ul jismimda dil,  
Sen uni xokiy tanimdin toza qil.  
Ul ilmni toki tuproq bosmagay,  
To havolar har tarafga sochmagay.  
Sochsa ham, basdir, kifoya bir so'zing,  
Qaytadan yig'moqqa qodirsan o'zing.  
Qatrakim, ketmish havolarga uchib,  
Ul xaziningdin ketolgaymu qochib?  
Maskani gar bir odammas, yuz odam,  
Sen chaqirsang, sen sari qo'ygay qadam.  
Tortadir zidlarni zidlar bir yo'la,  
Boz chiqurlar o'rta hukming ila.  
So'yi borliqqa odamdin har zamon,  
Yo'llanur karvon ketidin korvon...

\* \* \*

Ey birodar, qil o'zingga etibor,  
Sendadir har dam xazon birla bahor.  
Sen ko'ngil bog'iga ko'z sol, ne chaman,  
Har qadam gulg'uncha, sarvu yosuman.  
Boqki, yaproqlarga burkanmish butog',  
Gul bilan orastadir sahroyu tog'.  
Atru gul bo'lsa agar rahbar senga,  
Senga bo'lgay jannatul kavsar, senga...

\* \* \*

Odamiy kardir parilar soziga,  
Oshno ermas ularning roziga.  
Gar pariyu nag'ma bir olam erur,  
Lek ko'ngil sozi yana ko'rkam erur.  
Nurni sen odamdan ol yo Undan ol,  
May tilarsen, ko'zadin yo xumdan ol.  
Meni ko'rgan baxtiyor, demish Nabiy,  
Meni ko'rganlarni ko'rganlar dag'i.  
Berdikim otash, chiroqni yoqdi sham,  
Kim chiroqni ko'rsa, ko'rgay shamni ham.  
Ochdi bir-bir yuz chiroqning vaslini,  
Har chiroqda ko'rsatur ul aslini...

\* \* \*

Avliyolar so'zi yumshoqdir, dag'al,  
Mulki diningga tayanchdir har mahal.  
So'zlari issiq-sovuqdir, et qabul,  
Jonni do'zaxdin himoyat aylar ul.  
So'zlarin bilgil tiriklik gulshani,  
Bandalik, sidqu yaqinlik ravshani.  
Bas, alardin gulshani jon zindadir,  
Dengizi, bahri javohir undadir...

\* \* \*

Falsafiy ul, munkiri Hannonadir,  
Avliyo asroriga begonadir.  
Falsafiy shaytonni tan olmas sira,  
Shul sabab shaytonga har kun masxara...

\* \* \*

Ilm agar ko'ngilga singsa, yor erur,  
Gar badanga singsa ul, bekor erur.  
Ilm Hudan kelmasa bevosita,  
Bir bo'yoqdirkim, ketar bilvosita.  
Sen bu yukni yaxshilik birlan tashi,  
Yukdan ajralganda shod bo'lgay kishi.

Ilm yukin eltma havoyi nafs uchun,  
Ilm tulporiga mingaysen u kun.  
Ilm tulporiga sen bo'lgach suvor,  
Qolmagay yelkangda ul yukdin g'ubor...

\* \* \*

Kim xalos topmish o'shal Hu jomisiz?  
Huga yettaymu kishi Hu nomisizB ?  
Ismini bilding, o'zing har yonda ko'r,  
Suvda ko'rma oyni sen, osmonda ko'r.  
Boylama ko'ngilni nomu harf ila,  
O'zligingdin kech, qutilgin bir yo'la.  
Gar temir ersang, erib, berang bo'l,  
Oyina ersang, tiniq, bezang bo'l.  
Qo'y tamom tavsifu avsofingni sen,  
Ko'r asl zotingni, ul sofingni sen.  
Rahnamosiz, bekitobu bexato  
Yuz ochar ko'nglingda ilmi anbiyo.  
Dedi Payg'ambarki, bordir ummatim,  
Ul mening bir gavharimdir, himmatim.  
Nur erur, boqsam, ularning maskani,  
Bas, ular ham nurda ko'rgaylar meni.  
Ul hadislarkim, sahih, oliy sifot,  
O'ylakim, chun mashrabi obi hayot.  
Kurd bo'lib, oqshom tunashni o'ylagil,  
So'ng arabdek uyg'onishni o'ylagil...

\* \* \*

Ahli Rum so'fiy edilar, ey padar,  
Bekitobu beqiroat, behunar.  
Sohibi sayqal - ularning siynasi,  
Yo'q ularning hirsu buxlu kiynasi.  
Ahli sayqalga ne hojat bo'yu rang,  
Har nafas ko'ngilda bir husnu jarang.  
Chetga otmishlar ilm po'stlog'ini,  
Tik tutib ilmalyaqin bayrog'ini,  
O'ylamay o'y, ro'shnolik topdilar,  
Nahru bahri oshnolik topdilar.  
Jumla qo'rqarlar o'limning dastidin,  
Bul qavm kulgay o'limning ustidin.  
Yarqirab sakkiz bihishtning jilvasi,  
Ul tiniq dillarga urmish shulasi.  
Ne emish ul Arshu Kursiyu Fazo  
Gar muyassar ersa diydori Xudo...

\* \* \*

Vo darig'o, ikki burda non hamon  
Otashi fikrimni so'ndirdi tamom .  
Etdi bug'doy subhi Odamni qaro,  
Kirdi Yer ul Oyu ul Oftob aro...  
Loylanib oqmoqda ul so'z to'lqini,  
Suvki kelsa tiyra, to's, tindir uni.  
To Xudoyim boz zilolu sof qilur,  
Tiyra qildi, Ul o'zi shaffof qilur.  
Sabr eltar orzuga, etma shitob,  
Sabr qil vallohu alam bis-savob...

\* \* \*

Masnaviy nazmida yuz berdi sukut,  
Vaqt lozim qondin ayrilguncha sut.  
Ul shirin sut qondin ayrilmaydi to,  
Etmaguncha toleing farzand ato.  
Ul Ziyoulhaq Husomiddin bu on  
Masnaviyni burdi ko'kdin yer tomok.

Ul Haqoyiq ko'kiga ketmish edi,  
Gulbahorsiz g'unchalar xomush edi.  
Qaytdi ul sohilga, og'oz ayladi,  
Masnaviy cholg'usini soz ayladi.  
Qaytdi bulbul bog' aro bong urgali,  
Uchdi lochin ul maoniy tergali.  
Shoh qo'li unga makon bo'lsin abad,  
Bul eshik elga ravon bo'lsin abad...

\* \* \*

Bongi Shayton - misli bongi oshno,  
Oshno tortgay seni so'yi fano.  
Bong urib, chorlaydi: kel, ey karvon,  
Bundadir yo'l, bunda manzildir, nishon.  
Har kishining ismin aytib, ey falon,  
Kel beri, der ul, vale bermas omon.  
Kimki borsa, qarshilar sheri balo,  
Umr zoye, yo'l mashaqqat, kun qaro...  
Bongi Shaytoning nima, ne ermish u?  
Mol derman, joh derman, obro'.  
O'z ichingdandir - o'shal ovozlari,  
Kes ularni, to yetishgay rozlar.  
Haq degil, shaytonni kuydir erta-kech,  
Solma ul nargis ko'zing kalxatga hech...

\* \* \*

Ko'kda oftob nematidir - nuri Arsh,  
Hosidu shaytonga ozuq-dudi farsh.  
Do'stu yordin dil g'izolar izlagay,  
Ilmi asrordin safolar izlagay.  
Har yaqindin totinursen bir nima,  
Har qarindoshdin olursen bir nima.  
Bo'lsa yulduzga magar yulduz yaqin,  
Ul yaqinlikdin tug'ilgaydir chaqin.  
Er bilan xotun qovushganda - bashar,  
Tosh ila temir so'g'ishganda - sharar .  
Yerga yog'sa yomg'iru naysonlar,  
Meva bo'lgay ham gulu rayhonlar.  
Yuz qizillik jism aro xundan kelur,  
Qonga talat - shamsi gulgundan kelur.  
Ol, qizil rang barcha rangdin yaxshidir,  
Ul quyosh rangi, quyoshning naqshidir.

\* \* \*

Suv sadosi - bongi Isrofil erur,  
Tirgizur hatto o'lik jonlarni ul.  
Guldiros ul, misli ayyomi bahor,  
Guldirab, bog'larni etgay lolazor.  
Yoki darveshlarga - ayomi zakot,  
Yoki mahbuslarga - payg'omi najot.  
Yo dami Rayhon, Yaman gul bo'yiga -  
Yo'g'rilib kelmish Muhammad so'yiga.  
Yeki atri Ahmadi mursal erur,  
Ahli osiyga shafolat keltirur.  
Yoki ul mushki Yusufdirkim, latif,  
Bahra olgay Yaqubi zoru zaif...

\* \* \*

Keksalik tuprog'i sho'rdir, o'ylakim,  
Sho'rlagan tuproqda ungaymu ekin?  
Kuch suvi, shahvat suvi bo'lmish ado,  
Foyda yo'q sendin birovga mutlaqo.  
Hurpayib qoshlar, o'siqdir, tasqara,  
Yoshlanib boqqan o'shal ko'zlar xira.

Yuz ajin uzra ajin, ranglar uniq,  
Til g'aliz, tam betamiz, tishlar siniq.  
Qosh qoraygan, tan mayibu, yo'l yiroq,  
Alxusus, korxona vayron, ish chatoq...

\* \* \*

Nuri Haqdin nuri his gul-gul erur,  
Nurun alo nur, degoni shul erur.  
Nuri his tortar shu yer, maydon sari,  
Nuri Haq tortar vale osmon sari.  
Nuri Haqdin bahramand ersa kishi,  
Ko'rsatur shirin so'zi, qilgan ishi...  
Odamiy olsa Xudodin nur agar,  
Qoshida jumla xaloyiq bosh egar.  
Jonida yo'q ersa zarra shubha-shak,  
Sajda etgaylar o'shanga chun malak...

\* \* \*

Men yana devonadirmen, ey tabib,  
Men yana savdoyidirmen, yo habib.  
To uribsen zanjiringni menga chun,  
Bo'ylakim, har halqasida bir junun.  
Bo'ldi savdoyi fununim o'zgacha,  
Har nafas kelgan jununim o'zgacha.  
Bas, junun ermish funun-zarbulmasal,  
Soldi zanjirga meni miri ajal.  
Onchunon devonalik yuz berdi, tut,  
Ki hama devonalar bergay o'git...

\* \* \*

Do'st agar ranjitsa, hech ranjirmu do'st?  
Mehr - mag'z ersa magar, ranj misli po'st.  
Do'st turur yoningdayu joningda to,  
Har balovu ofatu mehnat aro.  
Do'st - misoli zar, balo-otash erur,  
Zar agar otashga kirsa, xush erur...

\* \* \*

Dedi: nematbaxsh qo'lingdin, ey hakim,  
Totliyu tansiq taomlar ko'p yedim.  
Bir safar achchiq yesam, ofatmi ul?  
Baski, shirin o'rnida etdim qabul.  
Uzvu uzvim ichra inoming sening,  
Borlig'im ul donavu doming sening.  
Bitta achchiqdin agar faryodu dod  
Aylasam, boshimga tuproq shul zahot.  
Qo'llaring shahdu shakarbaxshdir chunon,  
Tegsa, achchiqlar yo'qolgaydir hamon.  
Ulki achchiq, ishq ila shirin bo'lur,  
Ulki misdir, ishq ila zarrin bo'lur.  
Ishq ila loy uzra nayson bo'lgusi,  
Ishq ila dard uzra darmon bo'lgusi.  
Murdalar ham zinda bo'lgay ishq ila,  
Shohlar qul, banda bo'lgay ishq ila...

\* \* \*

Keldi Musoga vahiy - lutfi Xudo;  
Aylading shu damda bandamdin judo.  
Hoy, ne qilding, ne edi bu qilmishing,  
Vaslu diydormu, judolikmu ishing?  
Har kishiga - o'zga bir siyrat, tana,  
Har kishiga istiloh berdim yana.  
Amr etarkan, sudi savdo kutmadim,

Bandaga mehru saxovat istadim.  
Hinduga hind istilohi xush yoqar,  
Sinduga sind istilohi xush yoqar.  
Poklamas nomimni tasbih so'zlari,  
Dur misoli poklanurlar o'zlari.  
Boqmagaymiz tilga yoxud qolga biz,  
Ko'z solodurmiz ko'ngilga, holga biz.  
Mayliga, bog'lanmasin ul til bila,  
Lekin ul payvasta bo'lsin dil bila.  
Millati ishq barcha dinlardin judo,  
Ahli ishqqa millatu mazhab - Xudo...

\* \* \*

Rahmat ichra necha rahmat bor, o'g'il,  
Bitta rahmatga qanoat qilmag'il.  
Obi rahmat sori engash, past bo'l,  
Ich mayi rahmatni chanqab, mast bo'l.  
Charxni olgil sen oyoq ostiga to,  
Tingla, yuksakdin kelur bongi samo.  
Ol quloqdin vahmu vasvos paxtasin,  
Ko'k nidosi to quloqda yangrasin.  
Ol ko'zingdan ham hasad nuqsonini,  
Toki ko'rgil g'ayb sarvistonini.  
Poklasang burning, dumog'ing, xush edi,  
Unga kirgay mushki Ruhulloh hidi.  
Qolmasin tabingda safrodin asar,  
Toki totgaysen shu dunyodin shakar.  
Mard bo'lib ko'rsat jahonga bo'ylar,  
Mardlar ergashsin senga, xushro'ylar...  
Ko'kka boqmoq ko'zga baxsh etgay ziyo,  
Lek qamashtirgay ko'zingni avvalo.  
Ko'zlaringni nurga, ro'shnolikka bur,  
Bo'lma xuffosh, kunni, ro'shnolikni ko'r.  
Oqibatbinlik erur nuring sening,  
So'ng haqiqatdir borar go'ring sening...

\* \* \*

Avliyodin gar yiroq tushsang chunon,  
Sen Xudodin ham yiroqdirsan hamon.  
Do'stdin ayrilmoqku bundoq g'am erur,  
Shohdin ayrilmoq nechuk motam erur.  
Sen-da bir shoh soyasini izla, top,  
Top o'shal shoh soyasida oftob.  
Yo'lga chiqsang, ushbu niyat birla yur,  
Yurmasang, bul nuqtadin ogoh o'tir...

\* \* \*

Xaq demishkim, qayga borsang haq ila,  
Tolibi mard bo'l, eranlarni tila.  
Ganj izla, chunki bo'l sudu ziyon,  
Yo'lda qolgay, sen ketib manzil tomon.  
Bug'doy olmoqqa kishi qasd qilgusi,  
Yakka bug'doymas, somon ham olgusi.  
Lek somon ekkanda bitmas gandume ,  
Mardum izla, mardum izla, mardume .  
Haj qilay deb Kabaga yurgay kishi,  
Makkani ham bir yo'la ko'rgay kishi.  
Do'st debon merojga chiqdi mo'htaram,  
Arshni ko'rdi ul, maloyiklarni ham...

\* \* \*

Oldida o'ltirdi pirning, so'rdi hol,  
Ko'rdi darvesh erdi ul, sohib ayol.  
So'rdi: yo'l bo'lsin senga, ey Boyazid?

Qaysi manzillar sari eltar umid?  
Kabaga, dedi, borurmen, haj uchun,  
So'rdi: aqchang bormu, yo'lda xaj uchun?  
Dedi: bordir ikki yuz tanga pulim,  
Ehtiyotdin to'nga tikkanmen uni.  
Dedi: atrofimdin aylan yetti bor,  
Bul tavofi Kabadin ham ustivor.  
Tangalami menga bergil, ey javod,  
O'yla, haj qilding, nasib etdi murod.  
Umra qilsang, bul baqoga yetganing,  
Soflanib yursang, Safoga yetganing.  
Tangrikim jonimni jon deb saylamish,  
O'z uyidin ham ziyoda aylamish.  
Kaba garchand Biru Borning mehr uyi,  
Xilqati jonim - Xudoning sir uyi.  
Kabani qurmish, vale yo'q sharpasi.  
Kirmamish ko'nglimga Haqdin o'zgasi.  
Meni ko'rding, bul Xudoni ko'rganing,  
Kabaning atrofidin o'rgilganing.  
Bori umrim toatu hamdi Xudo,  
Haq menga hamdam, qachon bo'lmish judo?..  
Sen ko'zingni kattaroq och, sol nazar,  
Nuri Haqni o'ziga olmish bashar.  
Boyazid ushbu o'gitni tingladi,  
Nuqta-nuqta ko'ngliga jo ayladi.  
Shul tufayli bo'ldi andoq muqtado,  
Yetdi ul oxirdin - ul oxirga to...

\* \* \*

Yurma nafs xohishiga, nafs kuyiga,  
Bur yuzingni do'sti sodiq so'yiga.  
Chun aqllardan aql quvvat olar,  
Nayshakar yonida o'sgay nayshakar.  
Menga nafs makr etdi, nelar ko'rmadim,  
Necha bir toshlarga boshni urmadim.  
Vadalar bergay senga ul basma-bas,  
Vadalarga so'ng o'zi bergay shikast.  
Haq magar umringni yuz yil shaylagay,  
Nafs har kun bir bahona aylagay.  
Ul sovuqmas, vadani issiq qilur,  
Qo'llaringni jodu birla bog'lar ul.  
Boshda qurt erdi, ilon erdi, qaro,  
Yo'lga tushgach, bo'ldi devu ajdaho...

\* \* \*

Kimki ustozdin qocharkan, yaxshi bil,  
Kechgay ustozni emas, davlatdin ul.  
Tan uchun kasb aylading, chekdning niyoz,  
Endi dining deb mashaqqat chek bir oz.  
Bul jahon ichra badavlatsten, g'ani,  
Lek ketar chog'ida topgoning qani?  
Bir hunar kasb etki, kelsa oxirat,  
Qo'llasin joningni, topgil maxfirat.  
Ul jahon ham shahru bozoru hunar,  
O'ylama, yolg'iz shu dunyoda unar.  
Haq taolo dedi: bul kasbi jahon,  
Ul jahon oldida ermakdir chunon...

\* \* \*

So'zki ul, dildan emas, tildan kelur,  
O'ylakim, gulxanda o'sgan gul erur.  
Bevafolar lutfiga lutf aylama,  
Ul buzuq ko'prikni yo'l deb o'ylama.  
Qo'ysa ul ko'prikka bir johil qadam,  
Singay ul ko'prik va johil poyi ham.

Gar biror maydonda lashkar lat yemish,  
Bul magar uch-to'rt muxannisdan emish.  
Bitta zarb birlan qochurlar orqaga,  
Sen mashaqqatga qolursen qaytaga...

\* \* \*

Yaxshidir ko'zni o'zingga solganing,  
Aytganing - aybni o'zingga olganing.  
Chunki kelgay yarmi-ayb dunyosidin,  
Boshqa yarmi ersa-g'ayb dunyosidin.  
O'n yaro chiqqan esa boshingga, bil,  
Sur o'zing malham, iloju chora qil.  
Yo'qsa aybing, bunga emin bo'lma, oh,  
Sendanam kelgay o'shal aybu gunoh.  
Surdi Iblis necha xush ayyomini,  
Bo'ldi rasvo, endi ko'rgil nomini.  
Bor jahonga maruf erdi, oy anga,  
Chappa ketdi kori, endi voy anga...  
Emin ermassen, o'zingni qistama,  
Malumu maruf bo'lishni istama...

\* \* \*

Telbalar masjidga tazim aylagay,  
Ahli dillarga vale zulm aylagay.  
Ul-majozdir, bul haqiqat, ey dali,  
Masjid ul-orifu sarvarlar dili.  
Ko'nglida masjid ko'targay avliyo,  
Sajdagohdir elga, dargohi Xudo...

\* \* \*

Yo'qsa gar hojat, Xudovandi g'ani  
Bermagay bir kimsaga bir narsani.  
Bo'lmasaydi hojati olam-zamin,  
Hech yaratmas erdi Rabbulolamin.  
Bo'lmasaydi yerda hojat ustuvor,  
Tizmas erdi tog'ni bundoq purviqor.  
Bo'lmasaydi ehtiyoj osmonga ham  
Yeti gardunni yaratmasdi Egam.  
Oftob, oy birla yulduzlarki ul,  
Ehtiyoj yo'q ersa, etmasdi zuhur.  
Baski, borliqqa kamand hojat emish,  
Erda ham hojatga mos olat emish.  
Sen oshir hojatni, ey muhtoj, zud,  
To karam etgay o'shal daryoyi jud...  
Yaxshilar afsona so'ylar yaxshiga,  
Sen yopishma suvratiga, naqshiga.  
Ey birodar, qissa chun paymonadir ,  
Mani unda-misli bug'doy donadir.  
Gul va bulbuldin necha afsona bor,  
Garchi ermas o'rtada so'z oshkor.  
Ne kechirmish sham ul, parvona ham,  
Tinglabon, manosiga yet, ey sanam...

\* \* \*

Borishardi turk, arab, forsu yunon,  
Shunda bir kimsa, anisu mehribon,  
Xayr, deb bir tanga savg'o ayladi,  
Yo'qki savg'o, balki g'avg'o ayladi.  
Fors dedi: bozor tushaylik shu zamon,  
Aqchaga angur olaylik, do'sti jon.  
Qo'y bu gapni, deb uni kesdi arab,  
Eynab olsak aqchaga, bo'lgay ajab...  
Turk dedi: behuda bu gaplar bari,  
Mevalar ichra uzumdir sarvari...

Shunda yunon ham aroga soldi so'z;  
Hoy, xarid etmoqqa stafil durust...  
Bas, ular bitta qarorga keldilar,  
Lek tushunmay, bahsu g'avg'o qildilar.  
Barchada xohish uzum erdi faqat,  
Barchasi birdek, uzum, derdi faqat.  
Lek aroga shum jaholat tushdi, bas,  
Tish, qovurg'a lat yedi, topdi shikast.  
G'ofilu g'aflat so'ziddin-mojaro,  
Bizniki-birlik ila sulhu saloh...

\* \* \*

Haq demishkim, dahr aro yo'q ummate,  
Bo'lmagay to unda sohib himmate.  
Jumla jonlarni yig'ib, yaqdil qilur,  
Jumla ko'ngillarni bemushkul qilur.  
Bizki ko'r qushmiz, adabda turmadik,  
Ul Sulaymon kelsa hamki, ko'rmadik.  
Chug'z kabi lochinga yov, dushmon bo'lib,  
Qoldik oxir mulkimiz vayron bo'lib.  
Chunki kirganmiz jaholat yo'liga,  
Yetkazib ozor azizlar ko'ngliga...

\* \* \*

Eyki, oziq senga shul xalqning xuni,  
Xalq xuni bir kun base tutgay seni.  
Molini sen qoni deb bil bir yo'la,  
Chunki topgay molini zahmat ila.  
Sen necha filbachcha yersan, poraxo'r,  
Ona filni bir kuni qarshingda ko'r.  
Ona fil bir kun muqarrar o'ch olur,  
Ul necha filbachchaxo'rni o'ldirur...

\* \* \*

Haq degil, og'zing, dahoning pok qil,  
O'z ruhingni chobuku cholok qil.  
Zikri Haq pokdirki, ul kelgach, tamom,  
Daf bo'lur har neki ifloslik, harom.  
Zid qochur, ziddin hamisha, inchunin,  
Tun qochur, zulmat qochur kelganda kun.  
Pok nom kirsas og'izga, bil u dam  
Qolmagay kirlik, palidlik, dardu g'am...  
Biz agar naymiz, navo Haqdin kelur,  
Biz agar tog'miz, sado Haqdin kelur...

\* \* \*

Sabr qilkim, sabr keltirgay najot,  
Sabr sergaklikka chun qo'lu qanot.  
O'zni tiykim, ko'p zaharli ul giyoh,  
O'zni tiymoqlikda nuri anbiyo.  
Yel ufursa, ko'kka uchgaydir xazon,  
Yel esib, tog'ni qo'porgaydir qachon?  
Har nafas shayton erur qarshingda shay,  
Ey birodar, qochma mendan, kel, degay.  
El bo'lurmen senga, bo'lgaymen rafiq,  
Yo'l ocharmen senga ravshan ham daqiq.  
Bo'yla der ul makru hiyla zo'ridin,  
Yusufo, qochgil odamxo'r bo'ridin.  
Sen haziru ehtiyot bo'l, xullasi,  
Chun firib aylar senga har luqmasi.  
Berga oltin, olma, darhol tarkin et,  
Sen-baliqdirsan, ilar qarmoqqa et...

\* \* \*

Porlasa mahshar quyoshi, ul zamon  
To'lg'anib, junbushga tushgaydir jahon.  
Bizni tuproqdin yaratmish, o'ylagil,  
Ne emish tuproq, fikr qil, anglagil.  
Murdadir bunda, u yoqda zindadir,  
Bunda xomush, unda ul go'yandadir.  
Ul tarafdin bizga yesa bir aso,  
Qo'lga olganda bo'lur ul ajdaho.  
Tog'u tosh Dovudga xushxonlik qilur,  
Ilkiga olsa, temirlar mum bo'lur.  
Yel Sulaymonshohga xizmat aylagay,  
Bahr Muso birla suhbat aylagay.  
Oy boqib, Ahmadga maftun, qul bo'lur,  
Otash Ibrohimga nasrin gul bo'lur.  
Yer yutar Qorunni bir ajdarsimon,  
Ustuni Hannonaga yetgay imon.  
Tosh Ahmadga salomlar yo'llagay,  
Tog' Yahyoga payomlar yo'llagay...

\* \* \*

Nuri Alloh lomakondek joydadir,  
Unda istiqbolu moziy qaydadir?  
Moziyu mustaqbal ermish senga ep,  
Bittadir ul, sen bilarsen ikki deb...  
Uyqu-orom ersa sohir ulfati,  
Sehru jodu uzra bo'lmas qudrati.  
Yotsa cho'pon, bo'rilar emin bo'lur,  
Chunki cho'pon g'ayrati sokin bo'lur.  
Haqki cho'pondir, amal befoydadir,  
Ul tarafga bo'riga yo'l qaydadir?  
Joduni Haq etsa, ul Haqdin ato,  
Sehru jodu deb uni aytmoq xato...

\* \* \*

Ey Rasulim, sohir ermassen base,  
Kiyganing ustingda Muso xirqasi.  
Ham sening ilkingda Quron ul-aso,  
O'ylakim, kofirga misli ajdaho.  
Sen yotursen, maskaning yer ostida,  
Lek asoying yotmagay yer ustida.  
Uxla, ey shoh, uxla orom, bexatar,  
Qo'l urolmaydi asoga o'g'rilar.  
Yerdasen, nuringga maskan-osmon,  
Yovlaring otmoqqa Haq tutmish kamon...

\* \* \*

Zikri Muso-bir bahona, ey o'g'il,  
Nuri Muso-aslida joningda ul.  
Firavn, Muso ikovlon senda jam,  
Sen o'zingdin izlagil, ey muhtasham.  
Porlagay nuri Muso mahshargacha,  
Nur o'shal nurdir, charog'i o'zgacha.  
O'zgadir garchi charog'u piltasi,  
Lek u yoqdandir safoyi shulasi.  
Shishaga boqsang, yo'qolgaydir yo'ling,  
Son-hisoblarga taqalgaydir yo'ling.  
Nurga boqsang, yo'llaring etgay davom,  
Son-hisoblardin qutulgaysen tamom...

\* \* \*

Bul jahon misli daraxtdir, ey kirom,  
Biz - butoqda mevalarimiz, g'o'ru xom.  
Novdaga qattiq yopishgay xomlar,

Xomga kim etgay magar ikromlar?  
Bas, yetilsa, olsa sharbat, totu tam,  
Novdaga meva yopishmas uncha ham.  
Totsa ul iqboli shirinni dahon,  
Odamiyga hech bo'lur mulki jahon.  
Muncha xomsanki, hama hayron senga,  
Ona qornidan yemishdir qon senga...

\* \* \*

Har nechuk holingda ham etgil talab,  
Bir zilol axtar o'zingga, xushklab.  
Qovjiroq lablar guvohlik bergusi,  
Bir kuni chashma muyassar bo'lgusi.  
Senga lablar qurg'ashi payg'om o'lur,  
Qurg'agan lablarga suv inom o'lur.  
Bir kalitdir bu talab andoq senga,  
Ham sipoh, ham nusratu bayroq senga.  
Vositang yo'qdir, vale etgil talab,  
Vosita so'rmaydi sendin rohi Rab,  
Kimsani ko'rsang talabgor, ey o'g'il,  
Oldida boshingni indir, sen egil.  
Yondashib tolibga, tolib bo'l o'zing,  
Ergashib g'olibga, g'olib bo'l o'zing.  
Bir chumoli gar sulaymonlik tilar,  
Solma istehzo ila kubro nazar.  
Qancha molu davlating ersa hali,  
Bir tilak, andisha erdi avvali...

\* \* \*

Bor hadiskim, dil misoli par emish  
Bir biyobon ichra, yel-sarsar emish.  
Yel uchirgay parni, bermas unga dam,  
O'ngga surgay, so'lga surgay damba-dam.  
Bor hadis bir o'zgakim, ko'ngil chunon,  
Bir qozondir kim, turarmish qaynabon.  
Har zamon bir o'zga holu mayli bor,  
Undan ermas, boshqa joydin ul qaror...

\* \* \*

Xalq magar uyquda ko'rgay bir nishon,  
Men esam o'ngimda ko'rgaymen ayon.  
Bul jahondin o'zni bir dam berkitay,  
Tuyg'u-yaproqlar to'kilsin, silkitay.  
His-asiri aqlu hushdir, ey falon,  
Aqlu hush ruhingga tutqin begumon.  
Jon aql ilkin ochib, darmon qilur,  
Necha bir mushkulni ul osmon qilur.  
Tuyg'ular andishalarni to'plagay,  
Xoru xasdek suv yuzini qoplagay.  
Aqlu hush surgay ularni bir taraf,  
Ko'zlaringga suv ochilgay yarqirab.  
Aqlu hush gar senga nozir bo'lgusi,  
His-havas amringga hozir bo'lgusi.  
Uyquga cho'mganda bedor tuyg'ular,  
Qo'zg'olur joningda sirri g'aybilar.  
Sen ko'rib o'ngingda tushlar tozasin,  
Ham samo ochgay senga darvozasin...

\* \* \*

Husni fikr, ummidi xush hamroh senga,  
Ki madadkordir mudom Olloh senga.  
Har qachonkim sen o'qishni o'ylasang,  
Yani, Mushafni qiroat aylasang,  
Ul zamon nurlarga to'lgaydir ko'zing,

Ul zamon harflarni ko'rgaysen o'zing...  
Ul sabab bo'lmas valiyda etiroz,  
Haq olarkan, unga qaytarmog'i rost.  
Yondirib bog'ing, uzum bergay senga,  
Solsa motamga, to'zim bergay senga.  
Qo'li shol, qo'lsizga hamdastlik berar,  
G'am to'la ko'ngilga bir mastlik berar.  
Ne yo'qotsak, o'rniga bergay evaz,  
Etiroz etmoqni banda o'ylamas.  
Ulki, otashsiz haroratlar berur,  
Rozimen solsin meni otashga ul.  
Senga ravshanlikni bermish ul hama,  
Bas, chirog'ing o'chsa, afg'on aylama...  
Amri Haqsiz luqma oshing pishmagay,  
Turgay ul og'zingda, ichga tushmagay.  
To'kmagay chun bitta yaprog'in daraxt,  
Bermaguncha hukmini sultoni baxt.  
Maylu rag'batkim, imom, derlar ani,  
Unga ham yetgay o'shal amri g'aniy.  
Yeru osmonlarda zarra yurmagay,  
Tushmagay junbushga u, par urmagay..  
Bas, qazoyi Haq-rizoyi bandadir,  
Unda gar hukm ersa, xohish bundadir.  
Men yashay, deb o'zni har yon urmas ul,  
Ham hayot zavqin so'roqlab yurmas ul.  
Bo'ysunar Parvardigor amriga bot,  
Unga birdekdir hayotdir yo mamot.  
Ganj uchunmas, ul yashar Yazdon uchun,  
Ranj uchunmas, ul o'lar Rahmon uchun.  
Haq uchundir ko'nglida iymoni, bas,  
Azbaroyi jannatul mavo emas...

\* \* \*

O'ylakim, mashharda mardum saf bo'lib,  
Til hisob birlan munojotga kelib.  
Yosh to'karsen, oh urib Haq oldida,  
So'ylagaysen tik turib Haq oldida.  
Haq degay: muhlat beribdirman senga,  
Ne qozonding hamda keltirding menga?  
Umri muddatni qayoqqa sarflading?  
Qurbu quvvatni qayoqqa sarflading?  
Ko'z nuringchi, qayga sarf etding uni?  
Qayga sarf etding o'shal besh tuyg'uni?  
Uncha gavharlarki olding arshdin,  
Qayga xarj etding, ne olding farshdin?  
Qo'l, oyoq berdim chu ketmon, belkurak,  
Bir umr sodiq madadkoru tirak...  
Bo'yla payg'omu savollar ko'p bo'lur,  
Necha yuz minglab senga Haqdin kelur.  
Bandasi tinglar, qiyomda erkan u,  
Ko'p xijolatlar chekib, aylar ruku.  
Jismida bir zarra darmon qolmagay,  
Ul uyatdin Haqqa tasbih so'ylagay.  
Bosh ko'tar, deb Tangridin yetgay xitob,  
Haq savoliga aniq bergil javob...  
Ul rukudin bosh ko'targay sharmsor,  
Lek yiqilgay yerga besabru qaror.  
Boz kelur farmon: ayo, boshing ko'tar,  
Bizga ul qilmishlaringdin ber xabar...  
Bosh ko'targay ul uyatlig' qul yana,  
Lek ilondek yerga tushgay ul yana.  
Boz kelur farmon: ko'tar boshing, haqir,  
So'ylagil qilmishlaringni birma-bir.  
Bir nafas turmoqqa holi qolmagay,  
Haybati Haqdin majoli qolmagay.  
Qada aylab o'ltirur og'ir, garon,  
Tangri der: qilmishlaringni qil bayon.

Qayda ul nematga shukuronang magar?  
Berganim sarmoyadin bormu samar?..  
Yuz burib, o'ng qo'lga qul bergay salom,  
Ul tarafda - anbiyo, ahli kirom.  
Derki, ey shohlar, shafolat aylangiz,  
Men, laim balchiqqa botdim, qo'llangiz...

\* \* \*

Rost demishdir dahr eliga Mustafo,  
Qutbi dinu bahri daryoyi safo:  
Oqibatda har nekim johil ko'rur,  
Boshdanoq bilgay uni, oqil ko'rur.  
Ne bo'lur ish so'ngiga yetgach tayin,  
Oqil avvaldan bilur, johil keyin...  
Haq duo aylarsa, bunga ne yetar?  
Ul duo aylar, ijobat ham etar...

\* \* \*

Dil degan bo'lgay magar daryoyi nur,  
Dil-nazargohi Xudo, bo'lgaymi ko'r?  
Dil-necha xosu avomning ko'nglimas,  
Dil bo'lur bir kimsaning ko'ksida, bas.  
Dil-muhitdirkim, jahonni qoplagay,  
Dahr aro har oshiyonni qoplagay.  
Olam ahliga kalomlar yo'llagay,  
Haq salomidin salomlar yo'llagay.  
Har kishi ersa musaffo ham habib,  
Dil nisoridin anga yetgay nasib...  
Siymu zar deb o'ylading-da, bir yo'la,  
To'ldirib olding etakni tosh ila.  
Zar emasdi sen o'shal zar bilganing,  
Domaning yirtildi, oshdi ul g'aming...  
Yosh go'dak bilgaymu toshning toshligin,  
Ulg'ayib, to qo'ymaguncha yoshligin.  
Pirlik ul sochu soqolning oqimas,  
Ul aql birlan kelur insonga, bas...

\* \* \*

Gar aql bo'lsa aqlga oshno,  
Damba-dam ortgay magar mehru vafo.  
Nafs agar nafs birla esh, hamdam bo'lur,  
O'rtada mehru vafo kam-kam bo'lur.  
Nafs ul illatga bergaydir rivoj,  
Marifat bo'lgay zalolatga xiroj.  
Oshno, do'st bo'lmagil g'ofil bila,  
Do'st tutun, do'st bo'l faqat oqil bila.  
Chun samumi nafs birla xastasen,  
Har ne olsang, bir baloga bastasen.  
Gavhar olsang gar, qo'lingda tosh bo'lur,  
Mehr ko'rsang gar, ko'zingda yosh bo'lur...

\* \* \*

Har sifatkim, jon uchun Haq saylamish,  
Begumon unga munosib aylamish.  
Vasf ila jonni tanosib etdi ul,  
Yuz ila ko'zni munosib etdi ul.  
Yo go'zal, yoki xunukning vasfi ham,  
Mos-munosibdir, Xudo chekkan raqam.  
Ikki barmoq o'rtasinda bu ko'ngil,  
Gohi mayus ersa, gohi xursand ul.  
Ey qalam, faxr et, bu dunyo mulkida,  
Xat chekarsen, o'yla, kimning ilkida?  
Jumla junbishing u juft barmoqdadir,  
To'rtta yo'l boshida, to'rt barmoqdadir.

Holi nazming ham - Xudoning xohishi,  
Azmi jazming ham - Xudoning xohishi.  
Bas, tazarru ayla, o'zga roh yo'q,  
Har qalam bu shevadin ogoh yo'q...

\* \* \*

Yo boqing avvalgilarning holiga,  
Yo boring oxirgilarning oldiga.  
Ehtiyot ne? Ishni salmoqlash demak,  
Ikki tadbirdin birin tanlash demak.  
Gar biri desa: yo'lingdir yetti kun,  
Yo'l emas, qumlar kecharsen, tashna qum.  
Boshqasi desa: ishonma, ey falon,  
Har qadamda uchragay obi ravon.  
Ehtiyotdin chora-tadbir shul bo'lur,  
Suvni g'amlab chiqqaning maqul bo'lur.  
Yo'lda suv ersa, to'karsen hoynahoy,  
Yo'lda gar suv bo'lmasa, holingga voy.  
Ey xalifazodalar, insof qiling,  
Ro'zi Haqqa ehtiyot aylab keling.  
Otangizga chun g'azab etdi aduv,  
Illiyyundin sudradi zindonga u.  
Baski ko'rsatdi nechuk yiqmoqni ham,  
To yiqib, ranglarni sarg'aytmoqni ham.  
Ul hasadchi oldi, qochdi bojini,  
Otamiz ham onamizning tojini.  
Qip-yalang'och qo'ydi, bundoq etdi xor,  
Yig'ladi Odam bu ishga zor-zor...

\* \* \*

Shukr qil, nematdin ortiq bil ani,  
Noshukur ersang, senga nemat qani?  
Shukr agar jon ersa, nemat ggo'st anga,  
Shukr ila kelgay visoli do'st senga.  
Nemat ul-g'aflat, shukr-ogohlik ul,  
Dom etib shukringni, nemat ovlagil...  
Qona-qona ich mayi anvosidin,  
To qutulgaysen qorin g'avg'osidin...

\* \* \*

Kim yomondir, beomonlik aylagay,  
Yaxshilik etsang, yomonlik aylagay.  
Sabr ila nafsingga etgil qarshilik,  
Ul yomondin kim ko'ribdir yaxshilik?  
Yaxshiga bir karra ehson ayla.bas,  
Yetti yuz ehson ila bergay evaz.  
Gar yomonga aylasang qahru jafu,  
Senga banda, qul bo'lib, etgay vafo.  
Ahli kofir ham etib jabru sitam,  
So'ng jahannamda degaylar, yo Egam!..

\* \* \*

Keldi dunyoga ibodat deb bashar,  
Bo'ldi munkirga ibodatgoh - saqar .  
Odamiy dunyoda nelar aylasin,  
Mayli, lekin bandalikni o'ylasin.  
Insu jinslarni yaratdi Haq, demak,  
O'zga maqsad yo'q ibodatdin bo'lak.  
Gar bashardin muddao irfon edi,  
O'zgadir har odamiyning mabadi.  
Mabadi mardu karim - mehru vafo,  
Mabadi pastu laim - jabru jafu.  
Ur yomonni, bosh egar, ursang magar,  
Yaxshilarga berki, bergaylar samar.

Ikki masjid Haq bunyod aylamish,  
Kimga do'zax bermish ul, kimga bihisht.  
Ul Muso past qurdi Quddus qopqasin,  
To kirarkan, qavm sajda aylasin...

\* \* \*

Ahli dunyo shohga etgay sajdalar,  
Kibriyoga sajda etmaslar ular.  
Bo'yla mehrob etdi axlat zotini,  
Shohu sulton qo'ydi so'ngra otini.  
Bo'yla ko'ppaklarga pastlar bosh egar,  
Boshini egmas arislon, or etar.  
To's yuzing, ey kosales, sarqitxo'r,  
Senga non berganni Haq o'rnida ko'r...  
Bas, yetar, bundan-da ortiq bo'lsa gap,  
Ko'zg'atur shohu amirlarda g'azab.  
Gapning indallosi shuldir, ey karim,  
Bosh egur har dam laimlarga laim.  
Nafsi badga kimda kim ehson etar,  
Bilmagay nematni ul, kufron etar.  
Ahli mehnat shukr etib, shokir erur,  
Ahli nemat makr etib, botil erur.  
Molu nematdin shukr kelgaymu hech?  
Kelgay ul dardu alamdin erta-kech...

\* \* \*

Bul-Anas, farzandi Molikning ishi,  
Ki uning mehmoni erdi bir kishi.  
Ul hikoyat etdi, ovqatdin keyin,  
Ko'rdi mezbon sufraning dog' bo'lganin  
Kirlanibti, boq, dedi, ey xodima,  
Sen uni tandirga tashla bir dama...  
Oldi dasturxonni cho'ri qiz hamon,  
O't to'la tandirga otdi shul zamon.  
Jumla mehmon bunga hayron erdilar,  
Kul bo'lur otashda sufra, derdilar.  
Kechdi fursat, oldi dasturxonni qiz,  
Sufra erdi beg'ubor, poku tamiz.  
Ey sahoba, dedilar, bul ne edi?  
Ne sabab, otashga tushdi, yonmadi?  
Dedikim, ovqat tanovul aylabon,  
Mustafo surmishdilar dastu dahon...

\* \* \*

Boqki, gulning yulsalar ham bargini,  
Kulgusin qo'ymaydi, egmas qaddini.  
Kelsa boshingga baloyi nogahon,  
Yaxshilikka yo'y uni sen begumon.  
O'zgalar qo'rquv-la sarg'aygan zamon,  
Qarshila guldek kulib sudu ziyon.  
Sen yo'qotsang gar biror bir narsani,  
Bir falokatdin xalos etmish seni.  
So'rdilar: ustoz, tasavvuf ne emish?  
Dedi: g'am kelganda felni keng qilish...  
Bir balo yuz bir balodin saqlagay,  
Bir jafoda yuz bir jafodin asragay...

\* \* \*

Ulki bergay, foyda kutmay mutlaqo,  
Ul Xudodir, ul Xudodir, ul Xudo.  
Ul g'aniydir, o'zgalar ermish faqir,  
Bir evaz olmay qachon bermish faqirB ?  
Yo valiydirkim, anisi Haq emish,  
Nurga aylanmish, nuri mutlaq emish...

Bir tamah etmay magar xosu avom,  
Bir salom bermas birovga, vassalom.  
Xaq salomin izla yakkash, unga to'y,  
O'yma-o'y, manzilma-manzil, ko'yma-ko'y.  
Odamiykim xushnafasdir, xush kalom,  
Kelgay andin Haq payomi, Haq salom.  
O'zi murda, Tangri birla zindadir,  
Ul sabab asrori Alloh undadir...

\* \* \*

Sen qo'ling-la berganing xayru zakot,  
Ul taraflarda bo'lur naxlu nabot .  
Jannat ichra chashmadir sabring sening,  
Sutli irmoqdir magar mehring sening.  
Toating zavqi - asal, nahri gulob,  
Mastliging toatda - daryoyi sharob...  
Ul sabablar amru farmoningdadir,  
To'rtta daryo sharqirab, yoningdadir.  
Ne taraf ista, ravon etguvchi sen,  
Ne sifat ista, chunon etguvchi sen...

\* \* \*

So'rsakim, bilgaymusen sen Nuhni,  
Ul Rasuli Haqni, nuri Ruhni?  
Sen degaysen: nega bilmasmen, kabir?  
Ul quyoshu oydanam ravshan, axir.  
Nuhni ayturlar kitoblar bob aro,  
Ne imomlar har kuni mehrob aro.  
Nomi Quronda bitilmishdir yana,  
Qissalar insho etilmishdir yana.  
Rost dersan, chun bilarsen vasfini,  
Sen vale aslida bilmassen ani.  
Gar desangkim, bilmagaymen, kimdir ul?  
Nuhni yolshz Nuhga monandlar bilur.  
Lang chumoli filni bilgaymu sira?  
Pashsha Isrofilni bilgaymu sira?  
Bul so'zing ham to'g'ri so'zdir, ey falon,  
Mohiyatni chunki bilmassen hamon.  
Lekin, oshnam, mohiyat asli nima?  
Bul jihatni barcha ham bilmas, dema.  
Mohiyat ul garchi dengiz ichra dur,  
Ahli komil nazdida ravshan erur.  
Mulki borliq ichra Haqning zotidin -  
Ham buyukroq sirru asror bormikin?  
Ulki mahramlarga maxfiymas, ayon,  
O'zga sirlar emdi qolgaymu nihon?..

\* \* \*

Men tatib boqdim magar halvosini,  
Ko'zlarim ko'rdi uning siymosini.  
Gulga bir so'z aytdi, xandon ayladi,  
Dilga bir so'z aytdi, chandon ayladi.  
Boqdi, sarvning qaddini rost etdi ul,  
Nargizu nasrinni hamroz etdi ul.  
Nayga ehson etdi shirin jonu dil,  
Chekdi tuproqdin go'zal naqshi chigil.  
Qoshni chizdi egmayu tarror etib,  
Yuzni chekdi gulgunu gulnor etib.  
Tilni etdi shul jahon afsungari,  
Konga inom etdi zarri jafari.  
Uzdi o'q ko'nglimga, savdo ayladi,  
Bir ajib oshig'i shaydo ayladi.  
Unga oshiqmenki, olam jonidir,  
Aqlu jon hamrozi bir marjonidir.  
Lof demang, lof ursa suvdek gar tilim,

So'ndirarmen o'tni, yo'qdir mushkulim.  
Bus-butun mahzan, suyanchim ul o'zi,  
Beti qattiqmen, tayanchim ul o'zi...

\* \* \*

Boqki, Quron ichra so'z zohir erur,  
Ostida manosi bor, qohir erur.  
Boz uning ostida qo'sh manoyi hol,  
Unga yetganda aql hayronu lol.  
Bor yana to'rtinchi mano, bo'yla sir,  
Voqif ul yolg'iz Xudoyi benazir.  
Boqma Quron zohiriga, bu - g'alat,  
Dev boqur odamga tuproq deb faqat.  
O'ylakim, Quron-da bir odamsimon,  
Jismi zohir, joni ko'zlardin nihon...

\* \* \*

Bu jahonda neki bor, Haq buyrug'i;  
Juft-juftidir, bir-birining oshig'i.  
Har ne borkim, juftini izlar hamon,  
Kahraboga talpinur bargi somon.  
Osmon deydi Zaminga: marhabo,  
Men-temirdirmanki, sen-ohanrabo.  
Osmon-erdir, zamin chun xotini,  
Har ne eksa, yer yetishtirgay uni.  
Gar sovuq qotsa, harorat bergay ul,  
Chanqasa, namlik, tarovat bergay ul.  
Yerga parvona hamisha osmon,  
Er kishi xotindin aylangansimon.  
Yer-da oybonu maqomiga o'tar,  
Necha bir farzand tug'ib, ko'krak tutar.  
Yo'qsa yer, o'sgaimu erdi arg'uvon?  
Yer tug'ar erdimu yo'qsa osmon.  
Er-ayol ishqiga Haq bermish sabot,  
To jahonni asragay ul ittihad.  
Kun va tun zohirda dushmandir magar,  
Aslida yaxlit haqiqat, bir samar.  
Bir-biriga talpinurlar doimo,  
Birlashib, ishlarni etgaylar ado.  
Tun kerak insonga sog'lom tab uchun,  
Tabi solim yo'q esa, kunduz nechun?  
Deydi tuproq tandagi tuproqqa: hayt,  
Tarki jon qil, qo'y badanni, bizga qayt.  
Bizga hamdam bo'lganing avlo erur,  
Tanni qo'y.ul suvli bir mavo erur.  
To'g'ri,der tuproq.valekin bastamen,  
Men-da hijroning chekarmen, xastamen...  
Tandagi suvlarga suvlar arz etar:  
Bo'ldi, bas, g'urbatda yotgoning, yetar.  
Tandagi otashni chorlaydir quyosh:  
Uyga qayt, begonalarga egma bosh...  
To'rtta unurning bu yanglig' bahsidan,  
Yetmish ikki dardga maskandir badan.  
To'rt anosir to'rtta tutqun qush erur,  
Dard, ajal ersa-tugun yechguvchidir.  
Chun tugunlarni yechar ul, boz etar,  
To'rt tarafga to'rtta qush parvoz etar...  
Tortishuvlardan bo'lingay jismimiz  
Xastaliklarga chalingay jismimiz.  
Baski tushgay ul bari tan qasdiga,  
Qushchalar qaytmoqni istar asliga.  
Hikmati Haq mone bo'lgay har safar,  
Jam etib, sihatda tutgay to ajal.  
Derki, ey ajzo, hali mavrud emas,  
Chun ajaldin oldin uchmoq sud emas...  
Juzv-juzvkim ayriliqdin o'rtanur,

Ne emish joni g'aribning holi ul?

\* \* \*

Jon degay: ajzo, yeringiz farsh erur,  
Menga og'ir, chunki joyim arsh erur.  
Tan tilar ul sabzavu obi ravon,  
Sabzavu obi ravondin ul hamon.  
Mayli jon ersa hayotu haydadir,  
Lomakon otlig' muborak joydadir.  
Jon tilar dunyoda hikmat ham ulum,  
Tan tilar lek bog'u bo'stonu uzum.  
Jon tilar doim taraqqiy va sharaf,  
Tan tilar ul kasbu asbobu alaf.  
Gar kishi bir narsa istar har kuni,  
Istagan ul narsa ham qistar uni.  
Sharhini aysam.uzun doston bo'lur,  
Masnaviy juzvi oshib to'qson bo'lur...

\* \* \*

Azmu jazm ichra kecharkan turmushing,  
Goh-gohi o'ngidin kelgay ishing.  
Qo'l urarsen yangi bir niyatga, bas,  
Niyatingga Haq vale bergay shikast.  
Bermasa mutlaq murodingni magar,  
Noumid qolgay eding sen, beamal.  
Bersa baxtingni nuqul, bilgaymiding,  
Qudrati Haqqa nazar qilgaymiding?  
Baski oshiqlar tilakda o'ldilar,  
Qudrati Haqdin xabardor bo'ldilar.  
Ayrul tush jumla murodingdin,ayo,  
Har muroding senga bo'lgaydir ravo...  
Eyki sen mardumga zo'rlik aylading,  
Uzni chun g'olib, muzaffar o'ylading.  
Sen esingni boshga yig' har soniya,  
Quvma qochganni, yiqilganni aya.  
Balki ul qochgan qurar yo'lingda dom,  
Hamla ettay chun baloyi nogahon..  
Bo'lmagay oqil u g'oliblikda shod,  
Chunki g'oliblikda u ko'rgay fasod.  
Oqil ulkim, ertani ko'rgay ko'zi,  
Bo'yla ko'zga surma chekmish Haq o'zi...

\* \* \*

Ishqni sir tutmoq chu mashuq maylidir,  
Oshiq ishq karnayu, surnaylidir.  
Ey birodar, ish aningdek ish erur,  
Gar ajal kelganda banda xush erur.  
Ey yigit, sidqu imonga ul nishon,  
Qarshilar ersang ajalni shodumon.  
Ey jigar, yo'q ersa iymoning chunin,  
Bor-da, izla, kasb et ikmoli din.  
Qaysi ishda gar ajal mag'lub senga,  
Bas, o'shal ishdur base mahbub senga.  
Kesa nafrat o'rtadin, qolmas ajal,  
Ul ajal ermas, ko'chib ketmoq magar.  
Baski nafrat ketdi, o'lmoq bo'ldi naf,  
Shul yo'sinda balki o'lmoq bo'ldi daf.  
Do'st Haqdir, Haq do'sti bo'ylakim,  
Men seningmen, sen menimsen, desa kim...

\* \* \*

Bas, Sulaymon so'rdikim, ey notovon,  
Kim senga jabr etdi, bizga et bayon?  
Munchalar zulm etdi qaysi zolim ul?

Haddidin oshgan u kimsa kim erur?  
Ey, bizim davronda zolim bormu bas,  
Bo'lsa gar zolim, nechun zindondamas?  
Biz tug'ilgan kunda zulm o'lmishdi chun,  
Biz-ki shoh ersak, u amr aylar nechun?  
Yo'q bo'lur nur birla zulmat barchasi,  
Chunki zulmatdir zulmning chashmasi.  
Boq, shayotin biz uchun xizmatdadir,  
Etsa sarkashlik, kishanda, o'tdadir.  
Zulmi zolim asli shaytondin kelur,  
Ersa zanjirband, zulm aylarmu ul?  
Bizga mulk bermish Yaratgan, Haqqu Hay,  
Toki osmonlarga xalq yuzlanmagay.  
To tutundan kiymasin osmon qaro,  
Iztirobga tushmasin charxu Shuho.  
To yetimlar Arshga larza solmagay,  
G'am chekib, jonlar parishon bo'lmagay.  
Mamlakat ichra tayindir chorasi,  
Uchmagay to ko'kka "yo Rab!" nolasi.  
Boqma osmonlargakim, arshingdadir,  
Osmoniy shoh magar qarshingdadir...

\* \* \*

Bir tovuq bor erdi, bundoq o'yladi,  
Tevani mehmonga davat ayladi.  
Keldi ul, ostonaga qo'ydi qadam,  
Uy buzildi, duv to'kildi shifti ham...  
Aqlimiz chun ul tovuqning xonasi,  
Aqli solihdir - Xudoning tevasi.  
Bosh suqar bo'lsa mabodo teva ul,  
Qolmagay uy, qolmagay jonu ko'ngil.  
Fazli ishq birlan kishi fozil bo'lur,  
Bundan ortiq istagan johil bo'lur.  
Bo'yla johildirki, jahl aylar ayon,  
Bo'ylakim, arslonni bosgaydir quyon.  
Bilsa erdi, bo'yla ish boshlarmidi?  
O'zni arslon ustiga tashlarmidi?  
Jonu tanga bo'yla zolimdir kishi,  
Zulm erur etgan adolatlig' ishi...

\* \* \*

Qaydakim yer uzra ko'rsang qatra qon,  
Ul mening oqmish ko'zimdan begumon.  
So'zlarim ko'k ichra gurrosdir magar,  
Guldirab, yer uzra yomg'ir yog'dirar  
So'zu faryod ichra qolmishmen atay,  
Yoki so'ylar, yoki yig'larmen, netay.  
So'ylasam gar, ohu faryodim fano,  
So'ylamas ersam, nechuk aytgum sano?  
Yosh emas oqqan ko'zimdin, dil xuni,  
Podshohim, boq yaqindin, ko'r uni...

\* \* \*

Ne emishdir ishq? Daryoyi adam,  
Aqlu idrok ul sari qo'ymas qadam.  
Bandalik ne, saltanat ne, malum ul,  
Ishq ularning ikkisidin sirlidir.  
Koshki deyman, bo'lsa shu borliqda til,  
Koshki borliq pardasin yirsaydi ul.  
Eyki, borliq, ne degaysen javrabon,  
Parda uzra parda tortgaysen hamon.  
Ofati idrok emishdir qolu hol,  
Qonni qon birlan magar yuvmoq mahol.  
Men uning savdosiga mahram hanuz,  
Bul qafas ichra urarmen dam hanuz.

Eyki jon, oshuftaholdirsen necha,  
Qaysi yonboshing bila yotding kecha?  
Yig' hushingni, muncha dam urmoq - balo,  
Boshqa mahram top o'zingga avvalo.  
Oshiqi massenki, bundoq shevasen,  
Novadon ustiga chiqqan tevasen...

\* \* \*

Sir ne ermish, paxta ichra otash ul,  
Qancha pinhon tutmagil, paydo bo'lur.  
Berkitay deb men urindim necha dam,  
Lekin ul bayroq ko'targay damba-dam.  
Ul tutib ikki qulog'imdin mani,  
Der: qo'lingdin kelsa.berkitgil, qani.  
Men degaymen: oshma haddingdin yomon,  
Jon kabi paydo erursen ham nihon.  
Ul degay: xum ichra mahbusdir tanam,  
Xumda maydek bazmi jamshid aylaram.  
Men degaymen: ket bu yerdin, chekma un,  
Ofati mastlik yetishmasdin burun.  
Ul degay, jomim simirgaymen necha,  
Kun bo'yi, toki namozi shomgacha.  
Shom kelib, olgay latif jomim mening,  
Ber, degaymen, kelmadi shomim mening.  
Mayning otini arab qo'ymish: mudom,  
Qaysi mayxo'r may ichib, to'ymish mudom?  
Ishq olovdir bodayi tahqiqqa ul,  
So'ng nihon soqiy bo'lur siddiqqa ul.  
Qaynasa tavfiq sharobi tinmayin,  
Dosh berolmay, ko'za sinmog'i tayin.  
Partavi soqiy sharobga urdi, hay,  
Qaynadi, raqs etdi sharbat, bo'ldi may.  
Bazilar hayrat aro tinglar buni,  
Sen so'rab ko'rgil, qachon ko'rmish uni?  
Bas, bilurlar barcha, o'tchi, suvchi bor,  
Qaynagan bor ersa, qaynatguvchi bor...

\* \* \*

Dedi: Payg'ambar: eshikni muttasil,  
Qoq erinmasdan, ochilgay senga ul.  
Bir kishi ko'yida yurgaysen magar,  
Duch kelur ul senga, ko'rgaysen magar.  
Har kuni qazsang quduqni tashnahol,  
Oqibat etgay nasib obi zilol.  
Barcha bilgaylarki, sen ham bil shuni,  
Ne ekarsen yerga, olgaysen uni.  
Ur temirni toshga, uchqun sachragay,  
Aksi bo'lmas, bo'lsa ham oz uchragay.  
Har kuni non yeydi insonlar nuqul,  
Bir kuni lekin tomoqdan o'tmas ul.  
Non yema, bechora ruhim, bo'lma kam,  
O'zni kulfatlarga solma muncha ham.  
Ermasang mahrum va ablahzoda sen,  
Ko'z ochib boq, qanchalar aftodasen.  
Gar jahonda oy to'lib, porlar quyosh,  
Sen esang har dam egarsen chohga bosh...

\* \* \*

Bir yigit chun o'tga parvona bo'lib,  
Qoqdi yori eshigin, xilvat qilib.  
Soqchi chiqdi, qo'rqdi, qochdi bog' tomon,  
Yorini bog' ichra uchratdi hamon.  
Dedi, yuz shukronalar aylab ado:  
Soqchilarni rahmat etgil, ey Xudo.  
O'rtaga bundoq sababni tashlading,

Bizni do'zaxdin bihishtga boshlading.  
Bir sababdin bo'yla etding korni,  
Siylading bizdek tikanni, xorni...

\* \* \*

Ey Ziyovulhaq Husomiddin, qaviy,  
Oshdi nuring birla oydan Masnaviy.  
Ulki, oliy himmating, ey mehribon,  
Boshlagay bizni, Xudo bilgay, qayon?  
Masnaviy bo'yniga arqon boylading,  
Bilganing yoqqa azimat aylading.  
Masnaviy yurgay, ko'rinmas yo'lchisi,  
Ko'zki botil ersa, qandoq ko'rgusi?  
Masnaviyni boshlabon, bshtuvchi sen,  
Gar uzansa ul, uzun etguvchi sen.  
Neki istarsen, Xudo xohlar chunin,  
Haq berur har neki istar muttaqin.  
Masnaviykim muqtado aylar seni,  
Qo'l ochib shukru duo aylar seni.  
Masnaviyda ko'rdi haqqingga duo,  
Lutfini senga ziyod etdi Xudo.  
Shamsni Quron ziyo deb nomladi,  
Oyni ersa, nurga nisbat ayladi.  
Nur yog'ur oydan, quyoshdandir - ziyo,  
Sen o'qi bul nuqtani Mushaf aro...  
Soch o'zing to'rtinchi daftar uzra nur,  
Oftob to'rtinchi osmondin kelur.  
Soch o'zing to'rtinchiga xurshidvor,  
Porlasin shahri chamanlar, bu diyor.  
Kim buni afsun desa, afsona ul,  
Kim haqiqatdir, desa, mardona ul.  
Mavji Nil qibtiyga suvmas, xun edi,  
Lek Muso qavmiga ul to'lqin edi.  
Bu suxanga kim yomon solgay nazar,  
Maskan o'lgaydir anga qari saqar.  
Ey Ziyovulhaq, chu ko'rding holini,  
Haq ayon etdi uning ahvolini.  
G'aybni ko'rgan ko'zlaring nam bo'lmasin,  
Bu jahonda toleing kam bo'lmasin.  
Mardga yuzlan, ayla nokaslarni tark,  
Qissaning poyoniga yetmoq kerak.  
Ul hikoyat unda etmishdi davom,  
Aylagil to'rtinchi daftarda tamom...

\* \* \*

Dahr aro mutlaq yomonlik yuq, inon,  
Ne yomonlik borki, nisbiydir hamon.  
Bormu zahrekim shakar, qand bo'lmagay,  
Yo oyoq bormu magar, band bo'lmagay.  
Ul birovga poy, birovga poyband,  
Og'u gar Toshmatga ul, Eshmatga qand.  
Zahri mor garchi ilonlarga hayot,  
Odamiy joniga ofatdir, mamot.  
Maxluqi obiyga daryo misli bog',  
Maxluqi xokiyga lekin margu dog'.  
Ey rafiqlik, boqqil jahonga bor-bor,  
Buyla nisbatlarni ko'rgaysen hazor.  
Zayd birovlar nazdida shayton erur,  
Lek birovlar nazdida sulton erur.  
Ul degaykim, mo'min ichra mo'mini,  
Bul degaykim, kofir ul, o'ldir uni.  
Bitta kimsa chun birovlariga jinon,  
Lek birovlariga nuqul ranju ziyon.  
Istasang gar senga bo'lsin ul shakar,  
Sen anga oshiq bo'lib solgin nazar.  
O'z qarog'ing birla ko'rma xubni sen,

Ko'r faqat tolib bo'lib, matlubni sen.  
Sen ko'zingni yum uning oldida, bas,  
Ko'rgali oshiq ko'zin olgil evaz.  
Ko'zni sen andin evaz ol, ey jigar,  
So'ngra ul siymo sari solgil nazar...

\* \* \*

Banda ranju g'am chekib, dod aylagay,  
Yuz shikoyat birla faryod aylagay.  
Haq degaykim, senga yetgan ranju dard,  
Haqqa yuzlantirdi, sen bo'lding jumard.  
Boqma ul nematga, rad etgil ani,  
Ki aziz ostonadin surgay seni.  
Darhaqiqat har aduv darmon senga,  
Kimiyovu foydavu ehson senga.  
Chunki dushmandin qocharsen doimo,  
So'ngra istarsen base lutfi Xudo.  
Do'stlaringdir asli joning dushmani,  
Hazratingdin ayru tutgaylar seni.  
Barcha bilgaydir magar bo'rsiq desa,  
Ul semirgaydir magar kaltak yesa.  
Ko'rkamu zebo bo'lur kaltak bila,  
Ziyragu dono bo'lur kaltak bila.  
Nafsi mo'min ham magar bo'rsiqdir ul,  
Mehnatu zahmat ila komil bo'lur.  
Ul sababdin el aro ranju shikast,  
Xammadan ham avliyoga yetdi, bas.  
Jonlari jonlardin avlodir magar,  
Chunki ko'p jabru jafolar ko'rdilar.  
Yo'q dema sen, rozi bo'lgil, ey falon,  
Gar Xudoyim bersa kulfat nogahon.  
Do'st balosi poklagay joningni bot,  
Ilmu tadbiringdin ul ustun, ziyod...

\* \* \*

Shahvati dunyo magar gulxan erur,  
Ul sabab hammomi zuhd ravshan erur.  
Muttaqiylarga o'shal o'tdin safo,  
Baski, xammom ichradirlar doimo.  
Ag'niyo gulxanga tashlaydir tezak,  
Maqsadi o'tni balandroq aylamak.  
Tangri bermishdir ularga hirs dun,  
Har zamon hammomni qizdirmoq uchun.  
Hirsingiz o'tdir jahonda, ey falon,  
Har o'ti ochgay jahonga yuz dahon.  
Ulki der, men molu davlat to'pladim,  
Desa bo'lg'ay, muncha axlat to'pladim.  
Oftob ko'kdin olovlar purkagay,  
Har ne axlatni olovga burkagay...

\* \* \*

Ahli mo'min ayru, iymon bittadir,  
Jismu tanlar muxtalif, jon bittadir.  
Fahmu jon hayvonda ham bordir necha,  
Odamiyning aqlu joni o'zgacha.  
Odamiylar jonikim bundoq erur,  
O'zgadir sohib nafaslar joni ul.  
Joni hayvoniyda bo'lmas ittihad,  
Izlama yel ruhidin sabru sabot.  
Ul tanovul aylasa, bul to'ymagay,  
Unga yuk ort, bunga og'ir kelmagay.  
Balki shod bo'lgay, sevingay o'lsa ul,  
Lek hasad etgay, muzaffar bo'lsa ul...  
O'zni soliklarga hamroh aylagil,  
Ruhi qudsiylarga ruhni boylagil.

Yuz chirog'ing yonsa, so'nsa, sir emas,  
Ayrudirlarkim,yagona,bir emas.  
Ul sababdin jang qilurmiz doimo,  
O'zaro jang aylamishmu anbiyo?

\* \* \*

Haq demish: jannatda devor borki, bas,  
Boshqa devorlar kabi jonsiz emas.  
Tan binoying ersa ogoh xonasi,  
Bo'lgay ul xonang - shahanshoh xonasi.  
Ul og'ochu mevayu obi zilol,  
Jannat ichra so'z qotib, so'ylar maqol.  
Demakim, asbobu olat tiklamish,  
Ravzani amolu niyat tiklamish.  
Bul bino gar obu gildan, murdadir,  
Ul bino toatdin ermish, zindadir.  
Bul binoning asli -qing'irlik, xalal,  
Ul binoning aslida - ilmu amal.  
Unda ko'shku taxt ila toju siyob ,  
Chun o'zi so'rgay savol, bergay javob.  
Gul tushaklarkim to'shalgaylar mayin,  
Xona top-toza, supurgi tegmayin.  
Toju taxtning o'zi sayr etgay base,  
Kuylagay eshik va eshik halqasi.  
Dil uyida g'am chu beandozadir,  
Tavbadin lekin hamisha tozadir...

\* \* \*

Atri bo'lsa, sabza gul bo'lgay edi,  
Ul magar bo'lganda bul bo'lgay edi.  
Bir tarafda ko'z esa, bir yonda til,  
O'rtada yo'l bor vale minglarcha yil.  
Bo'lma mayus, chun saxiydir osmon,  
Istasa, Haqdin yetishgay shul zamon.  
Qudrati birlan yetishgay sarbasar,  
Koni madanlarga anjumdin asar.  
Haq tilarsa, soya yemrilgay shu tob,  
Soya ne ermish, chiqarkan oftob?  
Pok nafasli avliyodardin faqat,  
Ko'kda yulduzlarga ham yetgay madad.  
Zohiran gar bizga yulduzlar suyanch,  
Botinan arzu samoga biz tayanch...

\* \* \*

Suvrat ichra olami asg'ar o'zing,  
Aslida lek olami akbar o'zing.  
Gar og'ochdin meva tongaydir rivoj,  
Meva topmog'i uchun bordir og'och.  
Gar umidi bo'lmasaydi meva, bol,  
Bog'bon bog' ichra ekmasdi nihol.  
Hazrati Odam va jumla anbiyo  
Bayrog'im ostidadir, der Mustafo.  
Suvrat ichra garchi odamzodamen,  
Hazrati Odamga lekin otamen.  
Men tufayli sajda etmishdir malak  
Yuz ochib Odamga osmonu falak.  
Fikri avval topdi oxirda amal,  
Xosa fikr erdi magar vasfi azal...

\* \* \*

Dedi Payg'ambar: zamona ichra men,  
Misli to'fon ichra suzgan kema men.  
Men va ashobim chu Nuhning kemasi,  
Kimki qo'l cho'zsa, najotin topgusi...

Shayxga hamrohshen, yomonlikdin yiroq,  
Kema ichra, beomonlikdin yiroq.  
Shayxi jonbaxshing qanoti ostida  
Kemada suzmoqdadirsan, osuda.  
Mehri birla goh uchirgaydir seni,  
Qahri birla goh ko'chirgaydir seni.  
Qahrini mehriга zid deb o'ylama,  
Ikkisi bir narsa, ayru aylama.  
Bir zamon bog'ingni bo'ston aylagay,  
Bir zamon dashtu biyobon aylagay.  
Ulki ko'rди, o'zga kymа ko'rmadi,  
Ko'ngli poklarga kelur jannat hidi.  
Xoli tut ko'nglingni yor inkoridin,  
So'ngra rayhon uz uning gulzoridin...

\* \* \*

Haqqa, bas, boshingni indir xam bo'lib,  
Yulduz ermas, Tangriga mahram bo'lib.  
Mahram o'lsang gar ilohiy sirga sen,  
Tunda ham porloq quyoshing ko'rgasen.  
Pok ruhdur bori, o'zga sharh yuq,  
Kechayu kunduzda unga farq yuq.  
Kun bo'lur, gar ko'kda ul sayron bo'lur,  
Tun tugangay, ko'kda gar tobon bo'lur.  
Zarra ne ermish, ne ermish oftob?  
Oftobing ahli irfon ichra top.  
Oftobkim, ko'k aro raxshonadir,  
Unga boqqanlar faqat hayronadir.  
Ko'zlaringga bersa nur Parvardigor,  
Ko'kda oftob ham senga miskin u xor.  
Chunki Haq kimyosidin yetdi asar,  
Bug', tumanlar ko'kda yulduz bo'ldilar.  
Bir ajib iksirni urdi ul shu tob,  
Chikdi zulmatdin yaraqlab oftob.  
Buyla sanatkorki aylab bir amal,  
Chaqnatib qo'ydi samo ichra Zuhul.  
O'zga yulduzlarki, jon gavharlarin,  
Bo'yla miqyos ichra ko'rgin, anglagin.  
Tindirar hissiy ko'zingni oftob,  
Diydayi Rabboniy o'zga, izla, top...

\* \* \*

Shaix Mag'ribiy demishdir bo'ylakim,  
Kechdi oltmish, tunda tunni ko'rmadim.  
Yetdim oltmish yoshgakim, hayrat menga,  
Bir zamon yuz ochmadi zulmat menga...  
So'filar so'ylab bu sidqi qolini,  
Tunda ko'rdik, dedilar, ahvolini.  
Dasht aro har ne tikanlar g'ov edi,  
Oy kabi oldinda ul peshrov edi.  
Boshini ortiga burmay, derdi ul:  
O'ng tarafga yurma, qarshingda chuqur.  
Lahza o'tmay derdi: o'tgil o'ng tomon,  
Chunki yo'l uzra tikan bor beomon.  
Kunduzi o'pdik oyog'in, ne ajib,  
Erdi qizlarning oyog'idek latif.  
Ne chaqa bor erdi unda, ne g'ubor,  
Erdi atlasdek hafifu beg'ubor.  
Mag'ribiyini mashriqiy etmish Xudoy,  
Baxsh etib mag'ribga mashriqdek chiroy.  
Nuri ul shamsu shamus andoq erur,  
Xosu omlar boshida porloq erur.  
Sen o'shal nur birla yurgaysen hamon,  
Ajdaho, kajdumlar ichra sog'-omon.  
Yurgay oldingda hamisha nuri pok,  
Yo'lni to'sganlarni aylab chok-chok...

\* \* \*

Toju taxtingga namuncha bandasen,  
Turda deb o'rnim, vale poygakdasen.  
O'z soqolingga chu yetmaydir kuching,  
Shohsen yaxshi-yomonga sen nechun?  
Senga buysunmas, oqargaydir o'shal,  
Hoy, takabbur, o'z soqolingdin uyal.  
Molikul mulk ulki, bosh indir anga,  
Ikki olam mulkini bergay senga.  
Shunda dersan: davlat ermas, ey Xudo,  
Sajda mulkini musallam qil mango.  
Necha shohlarkim jahondin o'tdilar,  
Bandalik zavqini totmay ketdilar.  
Totsalar Ibrohim Adham singari,  
Toju taxtdin voz kechar erdi bari.  
Haq shu dunyoni avaylab, bir kuni,  
Ko'zlaru lablarga bosdi muhrini.  
Shul sababdin ham shirindir taxtu toj,  
Ahli dunyodin yig'arlar boj-xiroj.  
Boj-xiroj deb tilla to'plarsen nuqul,  
Sen o'larsen lek, qolur ortingda ul.  
Bo'lmagay joningga iuldosh mulku mol,  
Zarni qo'ygil, ko'zlaringga surma ol.  
Bu jahon chohdirki, mahbussen hali,  
Sen Yusufdek ipga chirmash chiqqali...  
Bolakaylar ko'chada tosh o'ynashar,  
Tilla deb toshlarni, qattiq so'ylashar.  
Lekin oriflar ko'zi - kimyoyi nur,  
Oltinu gavharlaringga boqmas ul...

\* \* \*

Naychi bor erdi, chalardi damba-dam,  
Nogahon yel chiqdi bir gal ortidan.  
Ortiga tutdi-da nayni, dedi ul:  
Mayliga, men puflamay, sen puflagil...  
Ey musulmon, senki istarsen adab.  
Sabr qil, gar bersa ozor beadab.  
Kimni ko'rsa ul shikoyat aylagay,  
Ul yomonu bul yomon, deb so'ylagay.  
O'ziga bir kun vale qaytar so'zi,  
Chun yomonliqdir nuqul aytar so'zi.  
Yaxshidir ul sohibi sabru havas,  
Ki yomonlardin gapirmas, so'ylamas.  
Shayx so'ylar bo'lsa, bul- amri Xudo,  
Na malomatdir va na maylu havo.  
Yo'q shikoyat ermas ul, islohi jon,  
Jumla Payg'ambar-da etmishlar chunon...

\* \* \*

Eyki, sen, Haq, shaniga urguvchi do'q,  
Lashkari Haq ichradirsan, o'yla, qo'rq.  
Juzvi juzving lashkari Haqdir, biroq,  
Bosh egarlar senga, etmasdan nifoq.  
Ko'zlaringga yesa gar Haq buyrug'i,  
Shul zamon joningni olgay og'rig'i.  
Tishlaringga bersa Olloh amrini,  
Ne uqubatlarga solgaydir seni.  
Tib kitobidin o'qi bobul-ilal,  
Ki nechuk tan lashkari aylar amal.  
Lashkari devu parini qo'y nari,  
Bos, desa, jonlarni bosgay lashkari.  
O'z-o'zingga mahliyosen, bas, o'zing,  
O'z-o'zing birlan xushu sarmast o'zing.  
Qush o'zingsen, ov o'zingsen, dom o'zing,

To'r o'zingsen, yem o'zingsen, tom o'zing.  
Gavhar o'ldirki, agarda yaxlit ul,  
Bulmasa yaxlit, o'shal noqis bo'lur.  
Senki odamzodasen, gavharcha bo'l,  
Jumla zuryodingni o'z jismingda ko'r.  
Xumda ul nekim, topilmas nahr aro,  
Uyda ne ulkim, topilmas shahr aro.  
Bul jahon-xumdir, ko'ngil-nahri ajab  
Bul jahon-uydir, ko'ngil-shahri ajab..

\* \* \*

Kirsak ul butxonaga, ey bulhavas,  
Bizga butlar bosh egar, biz butgamas,  
Kirdi Ahmad, kirdi so'ngra Bu-Jahl,  
O'rtada bordir tafovut, anglagil.  
Ul kirar, butlar uning oldida losh,  
Bul kirar, lekin egar butlarga bosh.  
Bul jahon-shahvat uyi, butxonadir,  
Anbiyo, kofirga birdek xonadir.  
Poklar shahvat so'ziga boqmagay,  
Kondagi oltinni otash yoqmagay.  
Ahli kofir-soxta, pok-rasmona zar,  
Tovaga ul ham tushar, bul ham tushar.  
Ul tusharkan yuz qaro bo'lgay hamon,  
Bul tusharkan, zarligi bo'lgay ayon.  
Tovada oltin jimirlab, xush erur,  
O't-olov ichra yana dilkash erur...

\* \* \*

Jismimiz bir pardadirkim onchunon,  
Xas-xashak ostida daryodir nihon.  
Shohi dinga sen balanddin boqmagin,  
Bo'yla boqmish erdi iblisi lain.  
Ko'kda porlaydir quyoshkim yarqirab,  
Bir hovuch balchiq-la bo'lgaymu suvab?  
Garchi nodonlar quyoshga qum sochar,  
Lek quyosh tuzonda qolmas, yuz ochar.  
Xas-xashak daryoni bosgaymu sira?  
Chang-g'ubor oftobni to'sgaymu sira?  
Bilqiso, silkit etakni shahvor,  
Toju taxting ul to'kilsin chun g'ubor...

\* \* \*

Dahr aro hirsing yoniq otash erur,  
O'tga tushganda ko'mir ham xush erur.  
Yuz qarolik otash ichra gar nihon,  
O't yonib bitganda bo'lgaydir ayon.  
Soldi hirsing ul ko'mirni o't aro,  
Kechdi hirsing, qoldi lekin ul qaro.  
Ul ko'mirkim yondi lov-lov, yashnadi,  
Husn emas, otashga monand hirs edi.  
Hirs chizar qarashingda alvon manzara  
Hirs magar bitganda, holing-masxara.

\* \* \*

Ahli ehsonkim, saxovat ichradir,  
Zar yig'ib, shoirga bo'lgay muntazir.  
Molu mulk ne, sher azizdir baridin,  
Chun olingaydir u dengiz qaridin.  
Odamiy avval harisi non erur,  
Non suyanchiqdir taningga, qon erur.  
Aylagay yuz kasbu g'asbu yuz hiyal,  
Nonga yetguncha necha hirsu amal.  
Nonga yetgach, boshqasi darkor bulur,

Endi shoir maqtoviga zor bo'lur.  
Asli-naslin madhiga azbar kerak,  
Maqtovin aytmogga yuz minbar kerak.  
Shuhrati manzilma-manzil, ko'yma-ko'y,  
Xuddi ambardek taratsin atru bo'y.  
Xulqimizni xulqiga o'xshatdi Haq,  
Vasfimiz ham vasfidin olgay sabaq.  
Biru Bor madhu sano istar nuqul,  
Odamiyni ham yaratmish bo'yla ul.

\* \* \*

Oqil ersang, yig' hushingni boshga sen,  
Maslahat sol o'zga aqlu hushga sen.  
Ko'sh aql bo'lsa, balo bo'lgay yiroq,  
Avji osmonlarga qo'ygungdir oyoq...  
Devki chiqmishdi Sulaymon nom etib,  
O'lkani olmoqchi bo'ldi rom etib.  
Ko'rmish erdi ul Sulaymon korini,  
Bo'yla tuzmoq bo'ldi ish raftorini.  
El dedi: etma qiyos, befoydadir,  
Ul Sulaymon qaydayu bul qaydadir...

\* \* \*

Yurma nafsing ortidin, ey tumtaroq,  
Bog' emas, boshlar mozorga qarg'a-zog'.  
Gar borarsen, bor ko'ngil anqoyiga,  
Ko'hi Qofu masjidi Aqsoyiga.  
Har nafas o'smoqda savdoyingda gul,  
Gurkirar masjidi Aqsoyingda ul.  
Chun Sulaymon so'r uning ahvolini,  
Bosma nogoh, taftish ayla holini.  
Etibor birlan nazar solsang anga,  
Shul zamin asrorini so'ylar senga.  
Ul qamishdirmu va yo shakkarmikan?  
Har zaminga tarjimondir o't-o'lan.  
Bas, ko'ngil sahnida fikring gurkirar,  
Ham ko'ngil rozini ochgaydir ular.

\* \* \*

Sufikim ul bog'da o'ltirmish edi,  
Tizzasiga boshini qo'ymish edi.  
Bo'yla g'arq, etmishdi ko'ngil to'lqini,  
Uxlamish, deb bittasi turti uni.  
Nega uxlaysen dedi, atrofga boq,  
Ne og'ochlardir, ne anvo bog'u rog'.  
Haq o'zi amr aylamishdir: anzaru,  
Boq, demish asrori rahmatlarga u.  
Dedi: Haq osori-dildir, bulhavas,  
Boshqa osorlar uning osori,bas.  
Jondadir bog'u chamanlarning bari,  
Ko'rganing bul-suvda aks etganlari.  
Ko'rganing bul-suvda aks etgan xayol,  
Titragay, mavj ursa ul obi zilol.  
Mevalar, bog'lar bari ko'ngildadir,  
Suvrati dunyoda-obu gildadir.  
Bo'lmasaydi suvrati sarvu surur,  
Nomini aytgaymidi: dorulg'urur.  
Bu xayol ko'ngil elining aksidir,  
Avliyo jonu dilining aksidir.  
Jumla kelganlar ko'rarkan, aldanar,  
Deydilarkim, bunda jannatdir magar.  
Ham asl bog'din qocharlar yuz burib,  
Xor etarlar goh mazammat ham qilib.  
Baski g'aflat uyqusi topgay basar,  
Chinni ko'rgaylar, va lekin ne samar?

Ul sababdandirki, qabrison aro  
To qiyomat yangragay: vo hasrato!..  
Baxtiyor uldirki, o'lmay o'ldi Ul.  
Bul asl bog'din nasiba oldi ul...

\* \* \*

Chun Sulaymon tingladi, bildi magar,  
Ki ajal kelmish, yaqinlashmish safar.  
Dedi: to bormen, shu masjidi zamon,  
Ko'rmagay ofat va turgaydir omon.  
To tirikmen, muddaoying o'tmagay,  
Masjidi Aqsoga ofat yetmagay.  
Tutsa yuz yo'qlikka boru budimiz,  
So'ng yiqilgaydir magar masjidimiz.  
Masjiding-ko'ngil, taning - sojid anga,  
Ul yomon do'st xarrubi sobit anga.  
Do'stki nodo'st bo'ldi, ko'ngil boylama,  
Qoch nari, so'zlashma, suhbat aylama.  
Yul tomirdin ham uloqtirgil shitob,  
Yo'qsa masjidingni etgaydir xarob.  
Oshiqo, xarrubing o'smishdir bu dam,  
Yosh go'dakdek egri tashlaysen qadam. . .  
O'zni mujrim bil, gunohkor o'yla, bas,  
Yo'qsa, yuz burgay o'shal ustozi dars.  
Aytqi, johilmen, menga bergil saboq,  
Bo'yla insof nomusingdin yaxshiroq.  
Eng buyuk bobongdin o'rgangil, tamom,  
Rabbano, dedi, zalamno, vassalom.  
So'zni chaynab, bir bahona etmadi,  
Makru hiyla tug'ini yuksaltmadi.

\* \* \*

Badguharga ilmu fan o'rgatganing,  
Yo'lto'sar ilkiga xanjar tutganing.  
Mast-alast zanjiyga shamshir ber, bali,  
Ilmu irfon berma nokasga vale.  
Ilmu molu mansabu johu qiron  
Badguharlar ilkiga tushsa, yomon.  
Telbaga tig'-aqlu insofdin emas,  
Tig'ni olmoqlik erur mo'minga farz.  
Joni majnundir, tani shamshir bo'lib,  
Telbadin shamshirini olgin yulib.  
Mast etar johilni mansab, simu zar,  
Yuz arslon ham qutirmas munchalar.  
Vaqtu fursatni qulay topgan zamon,  
Sudralib chiqqay inidin har ilon.  
Jumla sahro moru kajdumga to'lur,  
Bitta johil kimsa gar podsho bo'lur.  
Molu mansab tegsa nokasga, yomon,  
Har nafas rasvolik aylar begumon.  
Yo karam, ehson yo'lini boylagay,  
Yo sochib oltinni, isrof aylagay.  
Shohni vazir xonasiga qo'ndirar,  
Ulki johil, ishni bundoq do'ndirar.  
Taxtki gumroh ilkiga tushsa, tamom,  
Simu zar choh qariga tushgay hamon.  
Io'lni bilmas yo'lni ko'rsatgaymu hech?  
Yondirar borliq-jahonni erta-kech.  
Yosh bola pirlik etarmu, o'ylakim,  
Ergashib borgan bo'lur shaytonga yem.  
Kel beri, der, oyni ko'rsatgum senga,  
Oyni ko'rmoqmu nasib etgay anga?  
Ko'rmagansen suvda bir bor aksini,  
Bas, netib ko'klarda ko'rsatgung ani?  
Ulki axmoq, shoh bo'lib solgay vahim,  
Oqilu dono turar bir chetda jim.

\* \* \*

Ul hadisda dedikim, Yazdonu hu  
Xalqi olamni yaratdi uch guruh.  
Bir guruhda jumla aqlu ilmu jud,  
Ul malaklardir, faqat aylar sujud.  
Yo'q ularda zarracha hirsu havo,  
Nuri mutlaqdir ular, ishq i Xudo.  
Bir guruh borkim, ular hayvonsifat,  
Yeb-ichib, uxlab, semirgaylar faqat.  
Bilgani yolg'iz yemishdir, o't-alaf,  
Bilmagaylar na shaqovat, na sharaf...  
Bor uchinchi bir guruh-qavmi bashar,  
Yarmi inson, yarmisi eshshak magar.  
Yarmisi fikru aqlning moyili,  
Yarmisi hirsu jahlning moyili.  
Yo'q o'shal ikki guruhda ixtilof,  
Lek bashar qavmi aro jangu azob.  
Odamiylar uchta ummat bo'ldilar,  
Imtihon bermoq uchun ayrildilar.

\* \* \*

Bir faqirkim sallasin boylab edi.  
Salla ichra bir balo joylab edi...  
Toki ul masjidga kirgan pallasi,  
Ajralib tursin bahaybat sallasi.  
Latta-lutta, har nechuk qiyqim, quroq -  
Solmish erdi, to ko'ringay kattaroq.  
Zohiran gar jannatul anvo edi,  
Lek munofiqdek ichi rasvo edi.  
Parcha-purcha har nechuk eski matoh,  
Barchasi erdi buyuk dastorga jo...  
Madrassa sori yo'l oldi ertalab,  
Erdi mundoq shuhratu obro'talab.  
Yo'lda lekin yo'lto'sar hozir edi,  
Yo'lto'sarlik bobida mohir edi.  
Yuldi-qochdi boshidin dastorini,  
Shul yo'sin bo'ldi bitirmoq korini.  
Lek faqih qichqirdi: avval ko'r ochib,  
Mayli, so'ng bir yoqqa ketgaysen qochib  
Qo'shqanot boylab ucharsen ne balo,  
Olganingni bir ochib ko'r avvalo.  
Och-da, siypab ko'r qo'ling-la bermalol,  
So'ngra ol, mayli, senga etdim halol.  
O'g'ri ul dastorni ochdi bir mahal,  
Har taraf sochildi latta-luttalar.  
Sochilib ul jumla ko'zi o'ngida,  
To'rt qarich bir narsa qoldi so'nggida.  
O'g'ri jahl ichra uloqtirdi ani,  
Dedi: ey makkor, ado qilding mani...

\* \* \*

Ul tabiblarkim, badanlarga tabib,  
Har ne darding ersa, bilgaylar boqib.  
Siydigingni tekshirib, holing nechuk,  
Aytishar avzoyu ahvoling nechuk. . .  
Tadqiq etgaylar tomirga qo'l urib,  
Dam-nafas ham rangi ro'yingni ko'rib.  
Lek tabiblar bor ilohiykim chunon,  
Bir boqib, holingni ko'rgaylar ayon.  
Gar tomir, ko'zlarga urmaslar ilik,  
Zohir etgaylar vale yuz xastalik.  
Ul tabiblar yosh va o'rgamchik magar,  
Har kasalga bir nishona axtarar.  
Bul tabiblar ersa chin, komil tabib,

Ich-iching tadqiq etarlar, ey habib.  
Sen hali dunyoga kelmasdan hamon,  
Holu ahvolingni etmishlar bayon..

\* \* \*

Shul yorug' olam, shu osmon birla yer,  
Haq og'ochida yetishgan olmadir.  
Sen shu olma ichra qurtdirsan magar,  
Ul daraxtu bog'bondin bexabar...  
Lekin ul qurtlar aro bor o'zga ham,  
Jonni bayroq aylagan, sohib alam.  
Olmani yorgay u, ortiq turmagay,  
Olma po'sti unga bardosh bermagay.  
Pardalarni yirtib ul, etgay ado,  
Suvrati qurtidir, o'zi lek ajdaho.  
Avvalo uchqun temirdin sachragay,  
Tashqari dunyoga so'ngra uchragay.  
Paxta bo'lgay doyasi, lek bari bir,  
Yog'dirib yolqin, uni aylar asir.  
Odamiy gar uyqu, ovqat birla band,  
Oqibatda lek maloyikdin baland.  
Paxtayu gugurt madad aylarsa to,  
Shulasi yetgay zamindin to Suho.  
Odamiy zulmatni ravshan aylagay,  
Dashtu sahrolarni gulshan aylagay...

\* \* \*

Bo'lsa hamdam necha do'st, ravshan senga,  
Garchi gulxandir, o'shal gulshan senga.  
Hamnishin ersa agarda dushmaning,  
Gulshan ichra gulxan ermish maskaning.  
Do'stga ozor berma, man-man etmagil,  
Berma qo'ldin, do'stni dushman etmagil.  
Xalqqa ehson ayla Rahmoning uchun,  
Azbaroyi rohati joning uchun.  
Do'stga doim do'st debon solgil nazar,  
Kiynadin keltirma ko'ngligga zarar.  
Ulki dushman, qoch nari, parhez ila,  
Maslahat qil yori mehrangez ila...

\* \* \*

Aqlu idrok yoshda ermas, boshdadir,  
Soch-soqol oqiga boqma, ey o'g'il.  
Bormu iblisdan-da kekxa bir ulug',  
Yoshi kekxa, lek zig'ircha aqli yo'q.  
Yosh bola uchrrar gahi Iso nafas,  
Ko'ngliga yotdir g'urur birlan havas.  
Soch-soqol oqi aqlanmas nishon,  
Bo'yla, deb bazida o'ylaydir avom.  
Ul muqallid doimo izlar dalil,  
Bir alomat axtarib, bo'lgay sabil.  
Istasang bir ishni sen, tadbir top,  
Rahnamo axtar o'zingga, pir top.  
Ulki taqliddan qutilmish, tut ani,  
Nuri Xaq birla ko'rar ul jumlani.  
Nuri poki bedalilu bebayon,  
Har ne ersa, baski etgaydir ayon.  
Ulki zohirbin puchakni chin demish,  
Qaydin ul bilgay, savatda ne emish.  
Necha oltin bor, tutunlardin qaro,  
Ki birov qo'l cho'zmasin deb el aro.  
Necha mis ham borki, ul zarrin niqob,  
Akdi qosirlar ko'rib, aylar tavob.  
Bizki botinni ko'rarmiz har nafas,  
